

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**



**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI**

Masharipova Oltin Quvondiq qizining

**5111000- Kasb ta`limi (Buxgalteriya hisobi va audit)
ta`lim yo`nalishi
ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ta'limda rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi ta'lim
texnologiyalarining o'rni va ahamiyati**

Ilmiy rahbar:

Atabayeva K.

Urganch 2018 yil

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI

“Kasb ta’limi” kafedrası

**Ta'limda rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi ta'lim
texnologiyalarining o'rni va ahamiyati**

Bajaruvchi: Masharipova Oltin Quvondiq qizi

Rahbar: Atabayeva K.R.

Urganch shahri

2018-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI
“KASB TA’LIMI” kafedresi

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH
BO`YICHA TOPSHIRIQLAR REJASI:

1. Talaba Masharipova Oltin Quvondiq qiziga universitet rektorining 201__ yil “__”
_____dagi _____-sonli buyrug`i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun
“Ta’limda rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi ta’lim
texnologiyalarining o'rni va ahamiyati” mavzusi tasdiqlangan.
2. Kafedra majlisining qaroriga binoan “Kasb ta’limi” kafedresi katta
o`qituvchisi, Atabayeva K. bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib
tayinlangan.
3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi kirish, ikkita bob, xulosa,
foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati, ilovalar, ta jadval va ta rasmdan iborat.
4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma’lumotlar O`zbekiston Respublikasi
Prezidentining asarlari va nutqlaridan, ”Ta’lim to`g`risida”gi va “Kadrlar tayyorlash
milliy dasturi” to`g`risidagi qonunlardan olindi.
5. Bitiruv malakaviy ishga O`zbekiston Respublikasi Prezidentining
Qarorlari hamda ta'limda rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi
ta'lim texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirishda
qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalarni ifodalovchi sxemalar va jadvallar
ilova qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

	Bajarilgan ishning mazmuni	Bajarish muddati
1.	BMI mavzusi va ob'ektini tanlash	07.12.2017
2.	Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni to'plash	14.12.2017
3.	O'quv-uslubiy manbalarni o'rganish	18.01.2018
4.	BMI rejasini tuzish	25.01.2018
5.	1-bobni tayyorlash	15.02.2018
6.	2-bobni tayyorlash	22.02.2018
7.	Korporativ hamkorlik ob'ektida muhokama qilish	15.03.2018
8.	Xulosa va takliflar qismini tayyorlash	05.04.2018
9.	BMI taqdimotini tayyorlash	13.04.2018
10.	Dastlabki himoyaga tayyorgarlik	20.04.2018

Bitiruv malakaviy ish rahbari: _____ **k.o`q. Atabayeva K.R.**

Bajaruvchi talaba: _____ **Masharipova Oltin Quvondiq qizi**

2017 yil “__” _____

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 201__ yil “__” _____ da
tasdiqlandi (__-sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: _____ **i.f.n., dots. Abdullayev I.S.**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO`YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba: Masharipova Oltin Quvondiq qizi

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: “Ta’limda rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi ta’lim texnologiyalarining o’rni va ahamiyati”.

Bitiruv malakaviy ish xajmi: 87 bet.

Tushuntirish qismi: Bitiruv malakaviy ishning tushuntirish qismida dastlab kirish qismi berilgan. Keyin 2 ta bob, 6 ta paragrafdan iborat asosiy qismda mavzuning mohiyati ochib berilib, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ishning tushuntirish qismi mavzu bo`yicha xulosa va takliflar bilan yakunlangan.

Ilovalar soni: ta.

Mavzuning dolzarbligi: Bugun barcha davlatlar ta’limga imkon qadar ko’p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg’otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta’limning o’zi yangiliklarga boy bo’lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim.

Ma’lumki, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish vazifasi ”Ta’lim to’g’risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” to’g’risidagi qonunlarda barcha ta’lim muassasalari zimmasiga yuklatilgan. Hozirda barcha ta’lim-tarbiya jarayonlarida innovatsion ta’lim texnologiyalarni ishlab chiqishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanib, tahsil oluvchilarda o`zlashtirilishi lozim bo`lgan o`quv material yuzasidan bilim, ko`nikma va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish maqsadida ularni o`quv mashg`ulotiga qiziqtirish eng muhim jarayon hisoblanadi. Bu jarayonlarni o`rganish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi: Bitiruvchi universitetdagi 4 yillik ta’lim jarayonida nazariy bilim olib, malakaviy amaliyotlar

davrida ularni amaliyot bilan bog`lab, mukammal o`rgangan. Oxirgi 2 yillikda aynan kasb hunar kollejlarda kasb hunar ta`limi jarayonida qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalarni chuqurroq o`rganishga e`tibor qaratgan.

Bitiruvchi talabning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari: Talaba bitiruv malakaviy ishini bajarish bo`yicha berilgan barcha topshiriqlarni mustaqil bajardi, ta'limda rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi ta'lim texnologiyalariga doir maxsus adabiyotlarni talqin qildi, ilmiy-ommabop jurnallardagi maqolalarni o`rgandi. U bilimga intiluvchan, tirishqoq va intizomli talaba.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari: ta'limda rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi ta'lim texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo`nalishlari bo`yicha berilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini oshirishda foydalanish imkonini berishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishga qo`yilgan talablarning bajarilishi darajasi: Bitiruv malakaviy ishiga qo`yilgan talabalar to`liq bajarilgan.

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: _____ k.o`q. Atabayeva K.R.

2018 yil “___” _____

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI
5111000- Kasb ta'limi (Buxgalteriya hisobi va audit)

ta'lim yo`nalishi

Masharipova Oltin Quvondiq qizining

bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: “Ta'limda rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi ta'lim texnologiyalarining o'rni va ahamiyati”.

Bitiruv malakaviy ishning hajmi: 13526 so`zdan iborat;

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 72 sahifadan iborat;

b) ilovalar soni: 4 ta

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi: Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabaga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Ta'limning samaradorligini oshirish va bilimlarni to'la egallashlariga erishish, shaxsning ta'lim diqqat markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun, barcha fan o'qituvchilarini innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini oshirib borish lozim.

Bu jarayonlarni o`rganish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Shunday ekan, bitiruv malakaviy ish mavzusi dolzarb va berilgan topshiriqqa to`la mosdir.

Bitiruv malakaviy ishning “Kirish” qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning maqsadi, vazifalari, ob’ekti, predmeti, metodlari, natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati hamda joriy qilinishi yoritilgan. Ishda belgilangan vazifalar to`liq bajarilgan.

Bitiruv malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovasiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi: Ishlab chiqarish bilan innovasion korporativ hamkorlikni amalga oshirish borasida “Kasb ta’limi” kafedrasida qoshida tuzilgan innovatsion guruhlarda kafedra ixtisoslashuviga mos zamonaviy korxonalar ilmiy-texnologik muammolarini o`rganish bo`yicha rejalashtirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi: Bitiruv malakaviy ishi UrDU “Kasb ta’limi” kafedrasida majlisida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan (201__ yil “__” _____dagi __-sonli bayonnoma).

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari: Bitiruv malakaviy ish natijalarida olingan ilmiy g`oyalar va amaliy natijalar Urganch ijtimoiy-iqtisodiyot kasb –hunar kolleji tomonidan amaliyotga tadbiiq etish uchun qabul qilingan .

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar: Ish ayrim juz’iy kamchiliklardan ham xoli emas, ammo, ushbu kamchiliklar bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini, nazariy ahamiyati va ilmiy saviyasini aslo pasaytirmaydi.

Taqrizchi: _____

2018 yil “__” _____

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

	Baholanadigan bo`limlar	Eng yuqori ko`rsatkich ball hisobida
	BMIning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
	BMI mavzusi bo`yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma`ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

* **eslatma:** har bir kafedraning xususiyatlari e`tiborga olingan holda baholash mezonlariga o`zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Turizm va iqtisodiyot fakulteti 5111000- Kasb ta'limi (Buxgalteriya hisobi va audit) ta'lim yo'nalishining bitiruvchisi Masharipova Oltin Quvondiq qizining "Ta'limda rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi ta'lim texnologiyalarining o'rni va ahamiyati" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAKning 2018 yil "___" _____dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

	Baholanadigan bo`limlar	Eng yuqori ko`rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
	Jami:		

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. 5111000- Kasb ta'limi (Buxgalteriya hisobi va audit) ta'lim yo'nalishining bitiruvchisi Masharipova Oltin Quvondiq qizining “Таълимда ривожлантирувчи ва танқидий фикрлашни шакллантирувчи таълим технологияларининг ўрни ва аҳамияти” mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun ____ lik o`zlashtirish ko`rsatkichi belgilanish va “_____” deb baholansin.

2.

DAK raisi: _____

a'zolari: _____

2018 yil “__” _____

**Urganch davlat universiteti Turizm va iqtisodiyot fakulteti “Kasb ta’limi”
kafedrasi**

Bitiruv malakaviy ish ___-sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Masharipova Oltin Quvondiq qizi
Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: “Ta’limda rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi ta’lim texnologiyalarining o’rni va ahamiyati”

Ilmiy rahbarning ismi-sharifi: k.o`q. Atabayeva K.R.

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2017 yil “___” _____dagi majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Kafedra mudiri: _____ i.f.n., dots. Abdullayev I.S..

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo`yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani: _____ prof. Salaev S.K.

**Urganch davlat universiteti Turizm va iqtisodiyot fakulteti “Kasb ta’limi”
kafedrası
5111000- Kasb ta’limi (Buxgalteriya hisobi va audit) bakalavr ta’lim
yo`nalishi**

“TASDIQLAYMAN”

fakultet dekani

_____ **prof. Salaev S.K.**

“ ___ ” _____ **2017 y.**

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO`YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: Masharipova Oltin Quvondiq qizi

1. Ishning mavzusi: “Ta'limda rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni
shakllantiruvchi ta'lim
texnologiyalarining o'rni va ahamiyati

” 2017 yil “ ___ ” _____ universitet rektorining ___-sonli buyrug`i bilan
tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “ ___ ” _____ 2018 y.

3. Mavzu bo`yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro`yxati

1. Ziyomuxamedov B., Abdullaeva Sh. Pedagogika. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. - T.: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000.
2. Yuldoshev J.G. Yangi pedagogik texnologiyalar yunalishlari, muammolari, yechimlari// Xalq ta'limi, 1999, №4.
3. Yuldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.-T,2001.
4. Ishmuhomedov R. Bolalarni tarbiyalash va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya (o'zbek va rus tillarida).- T.: UD AP, 2004.

5. Ishmuhomedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
 6. Ishmuhamedov R.J, Abdukodirov A., Pardaev A. Direktorning ish kitobi. - T., 2007.- 122 b.
 7. Коджаспирова Г.М. Педагогика в схемах, таблицах и опорных конспектах.-М.: Айрис-пресс, 2006..
 8. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. Анализ зарубежного опыта.-М.: «Знание», 1989.
 9. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirishning yullari. - TDPU, 2004. - 44 b.
 10. Muslimov N.A. Bulajak kasb ta'limi ukituvchisini kasbiy shakllantirish - T: "Fan", 2004. - 128 b.
4. Ishning maqsadi: Barcha ta'lim muassasalarida ta'limda rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi ta'lim texnologiyalari hamda innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.
5. Chizma materiallar ro'yxati: ta jadval va ta ilova
6. Ilmiy rahbar: "Kasb ta'limi" kafedrasi katta o'qituvchisi, K.R.Atabayeva

BMI bajaruvchi talaba: _____ Masharipova Oltin Quvondiq qizi

Kafedra mudiri: _____ i.f.n., dots. Abdullayev I.S.

MUNDARIJA

KIRISH	3-4
1-BOB. INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	
MOHIYATI, NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Pedagogik texnologiyaning tasnifi, qonuniyatlari, tamoyillari	5-14
1.2. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari.	15-25
1.3. Ta'lim jarayonida innavatsion texnologiyalar va interfaol usullarning ahamiyati	26-35
2-BOB. TA'LIMDA RIVOJLANTIRUVCHI VA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRUVCHI	
TA'LIM TEXNOLOGIYA-LARINING O'RNI VA AHAMIYATI	
2.1 Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari va innovatsion ta'lim shakl, metod va vositalar.....	36-39
2.2. Ta'limda rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi ta'lim texnologiyalarining o'rni va ahamiyati.....	40-52
2.3. Ta'limda tanqidiy fikrlashni samaradorligini oshirish usullari.....	53-65
XULOSA	66-67
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	68-72

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yilning 22 dekabrIdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida «Ta'lim tizimida innovatsiyalarni, shu jumladan o'qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini joriy etish orqali targ'ib qilishga ko'maklashish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni nazarda tutuvchi innovatsion o'quv dasturlarini ishlab chiqishni ta'minlash» kerakligi to'g'risida fikr bildirdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI” to'g'risidagi PF-4947-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori asosida Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida “...ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish” asosiy vaziflardan biri qilib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017 yil 7 fevral` PF-4947-sonli farmoni bilan 2017?2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini tasdiqlab berdilar¹.

Harakatlar strategiyasiga ko'ra davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning “2017?2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. 2017 yil 7 fevral`.

o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish vazifalari belgilab olindi. Bugungi kunda yuksak tajriba hamda malakaga ega bo'lgan o'qituvchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev aytganlaridek, “tajribali pedagog va mutaxassislarni jalb etgan holda, o'quv reja va dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi”².

Biroq, e'tirof qilish kerakki, hali Respublikamizda yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'lim innovatsiyalarini to'plash, ular ichidan faoliyatimizda eng ko'p samara beradiganlarini tanlash, tajriba-sinovdan o'tkazish va qo'llash - joriy etishni yo'lga qo'yadigan tizim (mexanizm) shakllantirilmagan edi.

Bu esa, mavzuning tanlanishi uchun asos bo'lib, uning dolzarbligini belgilab beradi.

BMIning maqsadi ta'limni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

BMIning vazifalari: innovatsion ta'lim texnologiyalari mohiyati, innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarning ahamiyati, ta'limda rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi ta'lim texnologiyalarining o'rni va ahamiyati va innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'nalishlarini bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

BMI ob'ekti Xorazm viloyati Urganch ijtimoiy iqtisodiyot KHKi hisoblanadi.

BMI tuzilishi va hajmi. Ish tarkibi kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning matni 72 betni tashkil etadi.

² Sh.Mirziyoev. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak” // Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2017 yil 16 yanvar`.

1-BOB. INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI MOHIYATI, NAZARIY ASOSLARI

1.1. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING TASNIFI, QONUNIYATLARI, TAMOYILLARI.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasida barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish bo'yicha eng muhim ustuvor yo'nalishlar va maqsadlar belgilab olindi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev: "...Birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning "o'zbek modeli"ni amalga oshirish va zamonaviy davlat barpo etish borasidagi strategik tamoyillarga biz o'z ishimizda doimo suyanamiz. Bu tamoyillar O'zbekistonda bundan buyon ham siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni ta'minlashning mustahkam poydevori hisoblanadi" - deb ta'kidlashlari bejiz emas.

Mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga yo'naltirilayotgan yillik xarajatlar YaIMning 10-12 foizini va bu sohaning davlat byudjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ziyodni tashkil etishligida O'zbekistonning kelajagi, iqtisodiy barqarorligi va yurt farovonligi maqsad qilib olingan. 2016 yil yakunlariga ko'ra, ta'lim va tibbiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilashga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish doirasida ta'lim va tibbiyot muassasalarini qurish hamda rekonstruktsiya qilish, ularni zarur inventarlar bilan jihozlash uchun yil boshidan buyon qiymati 919,5 milliard so'mlik kapital qo'yilma o'zlashtirildi. Byudjetdan tashqari Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan oliy ta'lim muassasalari ob'ektlarini qurish hamda rekonstruktsiya qilish uchun 201,3 milliard so'm o'zlashtirildi.

Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan sport inshootlari qurish va rekonstruktsiya qilish bo'yicha qiymati 285,5 milliard so'mlik ishlar bajarildi.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish ta'lim tizimida yangi texnika va texnologiyalardan foydalana oladigan, yuksak malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni nazarda tutadi.

Ayni vaqtda mamlakat ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabaga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Texnologiya (yunon. “techne” – mahorat, san'at, “logos” – tushuncha, ta'limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va b.) jarayonlarning yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi.

Ta'lim texnologiyasi (ingl. “an educational technology”) – ta'lim (o'qitish) jarayonining yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi

Ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni ya'ni avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqaris.

Ta'lim metodi – o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimi hisoblanadi.

O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi talabalar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u talabalarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Ta'lim texnologiyasining markaziy muammosi – ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

Pedagogik texnologiya nazariyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo'lsada, aynan “pedagogik texnologiya” tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespal'ko pedagogik texnologiyani “amaliyotga tadbiiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi” deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi.

YUNESKO tashkiloti tomonidan berilgan ta'rifda pedagogik texnologiya-ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va boshqalarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiiq etish va aniqlashning izchil metodi hisoblanadi.

O'z mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimni ifodalaydi.


Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa va AQShda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rtaga tashlandi. Mazkur g'oya 30-yillarda ta'lim jarayoniga “pedagogik texnika” (“ta'lim texnikasi”) tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda “pedagogik (ta'lim) texnika(si)” tushunchasi “o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi” tarzida talqin etildi hamda o'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir deya baholandi.

XX asrning 50-yillarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash "ta'lim texnologiyasi" yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor talabalar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob'ekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayonini "texnologiyalashtirish"ning tashkiliy jihatlarini o'rganishga alohida urg'u berildi. 60-yillarning boshlarida ta'limni dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish "texnologiya" tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko'rila boshlandi. Dasturiy ta'lim talabalarga muayyan bilimlarni alohida qism holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta'lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQShda faoliyat yurita boshlagan "Dasturiy ta'lim va o'rgatuvchi mashinalar bo'yicha birlashgan Qo'mita" tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta'lim o'zida ta'lim maqsadlari, ularni o'zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta'lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. Bu esa o'zgartirish majmuasini to'laligicha qayta tashkil etish tushunchasi mazmuniga mos keladi:

1.1.1-jadval. “Ta’lim texnologiyasi” nazariyasining shakllanish bosqichi

	Bosqichlar	Yillar	Ta’lim texnologiyasi -TT
1.	I-bosqich	XX asrning 30-yillari	$TT = P_{tex}$ O’quv mashg’ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko’maklashuvchi usul va vositalar yig’indisi (pedagogik texnika – P_{tex})
2.	II-bosqich	XX asrning 40-yillari	$TT = P_{tex} + TV$ Ta’lim jarayonida texnik vositalar (TV)ni qo’llash, ularning imkoniyatlarini takomilashtirish, axborot sig’imini kengaytirish, ularni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, talaba faoliyatini individuallashtirish
3.	III-bosqich	XX asrning 50-yillari	$TT = P_{tex} + TV + \text{dasturiy ta’lim (DT)}$ Dasturiy ta’lim – ta’lim maqsadlarining aniqlanishi, ta’lim jarayonini umumiy loyihalash, talabalar tomonidan nazariy bilimlarning o’zlashtirilishi ehtimolini oldindan tashhislash, ta’lim jarayonining samaradorligini aniqlash, ta’lim maqsadining natijalanganligini o’rganish, faoliyat natijalarini tahlil etish
$TT = P_{tex} + TV + DT$			

Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari va ularning mohiyatini bilish mazkur jarayon haqida aniq tasavvurga ega bo’lish imkoniyatini yaratadi. Pedagogik texnologiya umumiy didaktik tamoyillarga ega bo’lishi bilan birga, quyidagi aynan o’zigagina xos bo’lgan tamoyillarga ham ega (1.1.1-rasm):



1.1.1- rasm. PTning umumiy didaktik tamoyillari

Pedagogik texnologiyaning umumiy tamoyillarini izohini keltirib o'tamiz.

1. Bir butunlik, yaxlitlik tamoyili ikki jihatni o'zida aks ettiradi: 1) ta'lim, tarbiya hamda shaxs kamoloti (taraqqiyoti) birligi; 2) pedagogik texnologiyaning muayyan, qat'iy tizimga egaligi, "tizimlilik" tushunchasi bu o'rinda ham ma'lum o'quv fanini o'qitish jarayoniga, ham umumiy ta'lim jarayoniga xoslikni anglatadi.

2. Asoslilik (fundamentlik) tamoyili fanlarning o'rganish ob'ekti, ichki mohiyati va xususiyatlariga ko'ra turli yo'nalish (blok)larga bo'lib o'rganish afzalliklarini ifoda etadi. O'quv fanlari tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar tarzida turkumlashtirilgan. Har bir o'quv fani uning uchun "yadro", "o'zak" sanaluvchi axborotlarga ega bo'lib, ushbu axborotlar shaxs tomonidan fanlar asoslarining o'rganilishi, aniq mutaxassislik bo'yicha mustaqil bilim olish, o'zlashtirilgan bilimlarni kengaytirib borish yo'lida tayanch tushunchalar bo'lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv ma'lum yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida fanlararo aloqadorlik xususiyatidan foydalanish imkonini ham beradi. O'quv fanlarining muayyan yo'nalishlar tarzda birlashtirilishi shaxs xotirasiga nisbatan zo'riqishni kamaytiradi, shuningdek, fikrlash quvvatini oshiradi, tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

XX asrning 80-yillarida ta'lim jarayonini tashkil etish ta'lim oluvchilarga mavjud fanlar soshalari biyicha oz-ozdan ma'lumot (bilim) berishdan iborat deb talqin etilgan

bo'lsa, 90-yillarda ushbu jarayonning tashkil etilishi o'zlashtirilgan bilimlar negizida muayyan, aniq fan bo'yicha yangi ma'lumot (bilim)larga ega bilish uchun qulay sharoitni yaratish jarayoni sifatida e'tirof etildi.

3. Madaniyatni anglash (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik) tamoyili nemis pedagogi A.Disterveg tomonidan XIX asrda iste'molga kiritilgan bo'lib, bugungi kunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Madaniyatni anglash tamoyili talabalarga ijtimoiy jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib ta'lim berilishini nazarda tutadi. O'tgan asrda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi yetakchi omil sifatida pedagogning bilim darajasi va mahorati e'tirof etilgan bo'lsa, bugungi kunda o'qituvchining bilimi, salohiyati hamda mahoratining yuqori darajada bo'lishi bilangina muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib bo'lmasligi barchaga ayon. Mazkur o'rinda zamonaviy fan va texnika imkoniyatlari, xususan, komp'yuter, mul'timediya vositalari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining e'tiborga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Endilikda mutaxassislar “soha (yoki yo'nalish)larning o'ziga xos jihatlari, bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur bilishlari, muayyan faoliyatlarni bajara olishlari, belgilangan muddatda aniq vazifalarni hal etishga ulgurishlari hamda ma'lum yutuqlarga erisha olishlari” g'oyasi yetakchi o'rin tutuvchi bozor munosabatlari sharoitiga puxta tayyorlanishi lozim.

4. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyili. Tilga olingan har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan (yunon. “humanus” – insoniylik, “humanitas” – insoniyat), bir o'zakka ega bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi. Insonparvarlashtirish ta'lim muassasalarida o'rganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya va boshqalar)ning kiritilishini, insoniylashtirish tushunchasi esa shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy yondashuvni anglatadi. Boshqacha aytganda, insonparvarlashtirish – inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmatini, sha'ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmatlashga asoslanuvchi faoliyatni tashkil etish jarayoni bo'lsa, insoniylashtirish “barcha sharoitlar inson va uning kamoloti (taraqqiyoti) uchun” degan g'oya asosida tashkil etiluvchi faoliyat jarayoni sanaladi.

Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda har bir o'qituvchi ushbu tamoyilga qat'iy amal qilishi lozim yoki o'z mutaxassisligiga oid muammolarni hal etishda uni jamiyat manfaatlarini bilan uyg'un bo'lishiga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Endilikda pedagog talabalar faoliyatini avtoritar (yakka hokimlik) tarzida boshqarmay, balki ta'limiy hamkorlik g'oyalariga sodiqlik asosida ta'lim jarayonini insoniylashtiradi yoki boshqacha aytsak, ta'limni insoniylashtirish tamoyiliga amal qilinishini ta'minlaydi. Ushbu holat o'z navbatida yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

5. O'qitib tadqiq etish, tadqiq etib o'qitish tamoyili. Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi: 1) ta'lim muassasalarining har bir o'qituvchisi o'z fani sohasiga talabalarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim; 2) o'qituvchi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyotda sinab ko'radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya'ni, u ta'lim jarayonini tadqiq etadi.

O'qitish jarayonining mazkur ikki jihati muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'qituvchining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga va talabalarni bo'lajak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlash uchun zamin yaratadi.

6. Ta'limning uzluksizligi tamoyili ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari, mavjud sifatlarning hayotiy faoliyat davomida takomillashib borishini nazarda tutadi. Shaxsga uning butun umri uchun asqotishi mumkin bo'lgan bilimlarni berish mumkin emas, zero, mavjud bilimlar har besh-o'n yil mobaynida o'zgarib, mazmunan boyib boradi. Demak, mazkur tamoyil o'qituvchining o'z faoliyatida mustaqil ta'limni tashkil etishga e'tibor berishi, pedagog yetakchiligini ta'minlagan ta'limdan talabalarning mustaqil bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishni ifodalaydi.

7. Faoliyatli yondashuv tamoyili nazariya va amaliyotning didaktik bog'liqligiga asoslanadi. Didaktika nazariyasida bilim tushunchasi quyidagi ikki xil ma'noda izohlanadi: a) ta'lim oluvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar; b) ular tomonidan o'zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo'llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar.

Bilimlar faoliyat jarayonida mustahkamlanadi, shu sababli talabalarda nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish iqtidorini tarbiyalash lozim. Amaliyotdagi tadbqiqiga ega bo'lmagan bilimlar tez orada unutilib yuboriladi. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini baholash ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda ularni amaliyotga tatbiq etishning samaradorligini bir qator mezonlar bilan aniqlash mumkin. Ular quyidagilardir:

- ta'lim, tarbiya va shaxsni rivojlantirish vazifalarining o'zida yaxlit aks ettira olishi;

- o'zida zamonaviy fan va texnika darajalarini ifodalay olishi;

- g'oyaviy jihatdan talabalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelishi;

- o'quv materialining zarur axborotlar bilan to'liq ta'minlanganligi;

- o'qitish jarayonida rang-barang metod va vositalarni qo'llash imkoniyatini ta'minlaganligi;

- ta'limning ko'rgazmaliligi va barcha uchun ochiqligini ta'minlash tamoyiliga egaligi;

- ko'p funktsiyali ta'lim vositalaridan foydalanish va ularni oson ekspluatatsiya qilish imkoniyatining mavjudligi;

- pedagogning talabalarga mustaqil ishlarni samarali tashkil etishga ko'malashish darajasi.

Pedagogik texnologiya sohasida Amerika Qo'shma Shtatlarining mashhur olimlari B.Blum, D.Kratval, M.Trondund, D.Kerroll, Dj.Blok, L.Endersson, R.Gen`s, L.Briglar nazariy va amaliy ishlar olib borganlar. MDHdan esa V.P.Bespal`ko, M.V.Klarin, G.K.Selevko, V.P.Monaxov, M.A.Choshanov, J.G.Yo'ldoshev, B.L.Farberman, N.S.Sayidahmedov, O'.Tolipov va boshqalar ishlar olib borganlar.

Pedagogik texnologiyaning bir necha turlari mavjud.

Pedagogik texnologiya turlari 1.1.2-jadval

Pedagogik texnologiya turi	Maqsadi	Mohiyati	Mexanizmi
Muammoli ta'lim	O'quvchilarni bilimi faolligi xamda ijodiy mustaqilligini oshirish	O'quvchilarga ketma-ket va maqsadli ravishda ularda bilimlarni o'zlash-tirish borasidagi faollikni yuzaga keltirishga xizmat qiluvchi masala-larni berib borish	Tadqiqotchi lik metodlari, bilish faoliyatiga yo'naltirilgan masalalarni yechish
Mujassamlashtirilgan o'qitish	Shaxsning his qilish xususiyatlariga maksimal darajada yaqinlashtirilgan ta'lim jarayonining tuzilmasini yaratish	Mashg'ulotlarni bloklarga biriktirish hisobiga fanlarni chuqur o'zlashtirish-ga erishish	o'quvchilar ish qobiliyati dinamikasini hisobga oluvchi ta'lim metodlari
Modulli ta'lim	Ta'lim mazmunini shaxs individual extiyojlari va uning bazaviy tayyorligi darajasiga muvofiqlashtirish	O'quvchilarning individual o'quv dasturi asosida mustaqil ishlashlari	Muammoli yondoshuvni amalga oshirishning individual maromi
Rivojlantiruvchi ta'lim	Shaxs va uning qobiliyatlarini rivojlantirish	O'quv jarayonini shaxs potentsial imkoniyatlari va	O'quvchilar faoliyatini turli sohalarga

		ularni amalga oshirishga yo'naltirish	yo'naltirish
Differetsial ta'lim	O'quvchilarning layoqati, qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash uchun qulay sharoitlarni yaratish	Turli o'zlashtirish darajalari bo'yicha majburiy ma'yor (standart)dan kam bo'lmagan xajmdagi dastur materialini o'zlashtirish	Individual ta'lim metodlari
Faol (majmuaviy) o'qitish	O'quvchilar faolligini tashkillashtirish	Bo'lajak kasbiy faoliyatning predmetli va ijti-moiy mazmunini modellashtirish	Faol o'qitish metodlari
O'yin texnologiyalari	Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning shaxsiy faoliyat tavsifida bo'lishini ta'minlash	O'quv axborotlarini qayta ishlash va o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil bilish faoliyati	o'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etishning o'yin metodlari

Pedagogik texnologiyaning xislati shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi, o'quv jarayoni yaratiladi va amalga oshiriladi.

1.2. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari.

O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotga hamda Ta'lim dasturining sifat bosqichiga o'tilishi ta'lim muassasalarida ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarini

yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borishni taqozo qiladi. Hozirgi zamon sharoitida jahon fani va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo‘lib bormoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan davrdan hozirgacha fan va texnologiyalarni rivojlantirish sohasida zarur infratuzilma yaratildi, muayyan intellektual va texnologik salohiyat shakllantirildi. Lekin, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish, ularni joriy etish uchun mavjud imkoniyatlar va salohiyatdan etarlicha foydalanmaslik ko‘zlangan islohotlarning samarali amalga oshirilishiga hamda mamlakatimizning jadal innovatsion rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bozor tamoyillariga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish – hozirgi zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlari samaradorligini ta‘minlovchi kasbiy ta‘lim mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarorida “...o‘quv jarayoniga xalqaro ta‘lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, ...professor-o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish” – vazifalari belgilangan.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2017 yil 29 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida” Farmon qabul qilinib, unda “ta‘lim tizimida innovatsiyalarni, shu jumladan o‘qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini joriy etish orqali targ‘ib qilishga ko‘maklashish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni nazarda tutuvchi innovatsion o‘quv dasturlarini ishlab chiqishni ta‘minlash” vazirlikning asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan

biri etib belgilangan. Mazkur qaror va farmonlar asosida bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 1 noyabrdagi PQ-3365-son "Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"³gi qarorida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish to'g'risida bir qancha ishlarni amalga oshirish mo'ljallangan.

Shunga ko'ra oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash ta'lim jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi.

Pedagog - olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida Nega o'qitamiz? Nimani o'qitamiz? Qanday o'qitamiz? savollariga javob izlash bilan bir qatorda qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin? - degan savoliga ham javob qidiradilar. Bu esa olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, o'qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi. Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida yangi innovatsion texnologiya yo'nalishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv – tarbiyaviy jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan , innovatsion texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish kengligida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar

³ www.lex.uz

tayyorlash milliy dasturi» da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, innovatsion texnologiyalar o'quv – tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, innovatsion texnologiya o'qituvchini ta'lim – tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashhis tizimini tuzish va bu jarayon kechishining nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan, innovatsion texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishini ta'minlaydi.

O'quv – tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'quvchilarning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talaba (yoki o'quvchi)lardan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Har qanday innovatsion texnologiyaning o'quv – tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talaba (yoki o'quvchi)ni kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganligiga bog'liq.

Innovatsion texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi globallashuv jarayonlarida ta'limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ta'limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish.

2. Talaba-yoshlardagi ma'lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish.

3. Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati.

Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. SHu sababli, oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlili qilish va umumlashtirish hamda pedagogik-psixologik fanlarning yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi.

Hozirgi paytda ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish keng ommalashganligini e'tiborga olgan holda, uning o'ziga xos jihatlarini qayd etish lozim. Birinchidan ushbu metod talabalarni mustaqilikka o'rgatadigan bo'lsa, ikkinchidan pedagogni boshqaruvchilik va yo'naltiruvchilik funksiyasini kuchaytiradi va ta'lim jarayonida talaba asosiy bo'g'inga aylanadi.

Shu o'rinda interfaol metodga ta'rif beradigan bo'lsak, ushbu metod o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham professor-o'qituvchi, ham talabani faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmuini tashkil qiladi.

Ta'lim jarayoniga innovatsiya va ta'lim texnologiyalarini joriy etish davr talabidir.

“Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini dunyo standartlari darajasiga ko'tarish, xalq xo'jaligining mutaxassislariga bo'lgan extiyojini ilmiy baholash, yoshlarni o'qitish va tarbiyalashda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish- bu masalalar bugun eng muhim hisoblanadi”.⁴

⁴ A. Karimov *O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida* –T.:O'zbekiston, 1995,269 bet.

Ta'lim muassasalarida innovasion pedagogik texnologiyalar va o'qitishning zamonaviy texnik vositalarini qo'llanilishi kadrlar sifatiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Innovasion pedagogik texnologiyalarni rivojlanishi esa bevosita axborot texnologiyalari rivojiga, ulardan ta'lim beruvchilar va oluvchilarning foydalana bilish darajasiga bog'liqdir. Tayyorlanayotgan kadrlarning malakali bo'lishi esa bevosita ularning dars mashg'ulotlari jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarini nechog'li o'zlashtirganliklariga bog'liqdir. Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoev shunday o'rinli fikrni ilgari surganlar: "Ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini ilg'or xorijiy markazlar darajasida va olimlar talablariga muvofiq sezilarli ravishda mustahkamlash kerak"⁵. Ta'limda innovatsion muhitni yaratish ta'lim faoliyatini yangi qirralar bilan ochish demakdir.


Innovatsiya – ingliz tilidan olingan bo'lib, "*Innovation*" yangilik kiritish degan ma'noni anglatadi. Avstriyalik iqtisodchi I.Shumpeter: "Innovatsiya – bu mavjud jarayonga yangicha karash, yondashuv bo'lib, zamonaviy kashfiyot va ishlanmani yoki insoniyat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yangi ishlab chikarishni ma'lum bo'lgan kandaydir jarayonga qo'llashdir", - deya ta'kidlaydi.

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida echish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Innovatsion ta'lim – maqsadga yo'naltirilgan loyihalalanuvchi, anglangan holda tashkillashtirilgan o'qitish jarayoni. Pedagogning innovatsion faoliyati:

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi bilan belgilanadi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // Xalq so'zi, 2017 yil 16 yanvar`..



1.2.2-rasm. O'qitishning innovatsion modellari klassifikatsiyasi⁶

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda pedagog va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan, interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlashdan iborat, ya'ni u pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining

⁶ Fayzullayeva D., Lutfullayeva N., "Iqtisodiy fanlarni o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.: 2016 y.

tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Ta'limda innovatsion yoshdoshuv deganimizda ham modulli o'quv jarayoni, ham zamonaviy texnologiyalardan, ya'ni internetdan ta'lim jarayonida foydalanishlar tushuniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiya o'qitishning axborotli vositalaridan, didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan pedagog va talabalarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Modulli ta'limning asosiy maqsadi talabalar tomonidan aniq o'quv mavzusi bo'yicha bilimlar tizimini o'zlashtirishi va ko'nikmalarga aylantirishdan iboratdir. Modulli ta'lim texnologiyasi aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasining bosh tushunchasi – faoliyatning yo'naltirilganligi asosida joylashadi. O'quv-bilim olish faoliyatining individual sur'ati modulli ta'limga dasturlashtirishdan kelgan. Modulli o'qitish fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Modul amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldirilishi kerak. Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'llaridan yana biri – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etishdir.

Interfaol ta'lim (ingl. “interact”, rus. “interaktiv”; “inter” – o'zaro, “act” – harakat qilmoq) – talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim. Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda:

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O'quv keyslari”), “Blits-so'rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat”.

2. Strategiyalar: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”.

3. Grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?”.

Modulli o‘qitishni tashkil etishda axborot texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Internet texnologiyasini qo‘llashga asoslangan masofaviy o‘qitish jahon axborot ta’lim tarmog‘iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o‘zaro aloqa tamoyiliga ega bo‘lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi.

Masofaviy ta’lim – muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari(video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televidenie va b.) yordamida ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, ta’limiy mahsulotlarni tarqatish va etkazib berishdai an’anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta’lim resurslaridan foydalanishga yo‘naltirilgan ta’lim. Masofaviy ta’lim tizimida produktiv, reproduktiv, muammoli bayon, evristik va ilmiy izlanish (tadqiqot) metodlari qo‘llaniladi. Mazkur tizimda o‘qitish vositalari sifatida quyidagilardan foydalaniladi: kitoblar (bosma va elektron shaklda); didaktik materiallar, kompyuter o‘quv tizimlari (oddiy va multimedia shaklida), audio o‘quv axborotlari; video o‘quv axborotlari; virtual stendlar; trenajyorlar; ma’lumotlar bazasi; texnik vositalar – radio, kinoproektor,diaproektor, videoproektor, kodoskop, kompyuter, internet tarmog‘i. Internet tarmog‘idan foydalanish, masofaviy ta’lim tizimini tashkil etishdaoliy ta’lim muassasalarida Modulli tizimining joriy qilinishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tizimning asosiy vazifasi professor-o‘qituvchi hamda talaba o‘rtasidagi turli xil elektron resurslar almashinish, tizimga vazifa va masalalarni joylashtirish orqali ta’lim berish samarasini oshirish hisoblanadi.


Innovatsion ta’lim (ingl. “innovation” – yangilik kiritish, ixtiro) – ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim.

Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida echish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar

Ta'lim innovatsiyalari “innovatsion ta'lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta'lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim klubi”da qo'llanilgan.

Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Ular (1.2.3-rasm):



1.2.3-rasm. Ta'lim innovatsiyalarining asosiy turlari

ko'rinishlari sanaladi:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondoshuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;

-ilgʻor ish uslublari.

Taʼlim tizimida yoki oʻquv faoliyatida innovatsiyalarni qoʻllashda sarflangan mablagʻ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi koʻzlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan oʻzgaruvchan mexanizmga ega boʻlishi zarur.

Barcha sohalarda boʻlgani kabi taʼlimda ham “novatsiya”, “innovatsiya” hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat toʻgʻrisida soʻz yuritiladi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega boʻlib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni oʻzgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi.

Bordi-yu, faoliyat maʼlum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan oʻzgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi

Ilmiy adabiyotlarda “novatsiya” (yangilanish, yangilik) hamda “innovatsiya” (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida eʼtibor qaratiladi. Misol uchun, V.I. Zagvyazinskiyning eʼtirof etishicha, “yangi”, “yangilik” tushunchasi nafaqat muayyan gʻoyani, balki hali amaliyotda foydalanilmagan yondashuv, metod hamda texnologiyalarni ifodalaydi. Ammo bunda jarayon elementlari yaxlit yoki alohida olingan elementlaran iborat boʻlib, oʻzgarib turuvchi sharoit va vaziyatda taʼlim va tarbiya vazifalarini samarali hal etish gʻoyalarini oʻzida aks ettiradi.

Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va b. koʻrinishida namoyon boʻladi.

Mohiyatiga koʻra novatsiya va innovatsiya oʻrtasida muayyan farqlar mavjud. Ular quyidagilardir 1.2,3-jadval):

1.2.3-jadval. Novatsiya va innovatsiyalar o'rtasidagi asosiy farqlar

Asosiy farqlar	
Novatsiya	Innovatsiya
1) amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi; 2) ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi; 3) metodlar yangilanadi; 4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi	1) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi; 2) ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi; 3) sub'ektlarning faoliyati to'la yangilanadi; 4) yangi texnologiyalar yaratiladi; 5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi; 6) amaliyotning o'zi ham yangilanadi

I.P.Podlasiyning fikriga ko'ra, ta'lim innovatsionlari quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:

- pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi;
- o'quv jarayonining o'zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o'zgarishi;
- o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi;
- talaba (talaba) faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o'zgarishi;
- ta'lim mazmunining yangilanishi;
- o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi;
- ta'lim tizimi boshqaruvning o'zgarishi;
- ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishi

1.3 Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarning ahamiyati

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talaba (yoki o'quvchi)lar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan birga, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba (yoki o'quvchi) asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog - olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida Nega o'qitamiz? Nimani o'qitamiz? Qanday o'qitamiz? savollariga javob izlash bilan bir qatorda qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin? - degan savoliga ham javob qidiradilar. Bu esa olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, o'qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi. Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv – tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish kengligida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv – tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim – tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashhis tizimini tuzish va bu jarayon kechishining nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishini ta'minlaydi.

O'quv – tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'quvchilarning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talaba (yoki o'quvchi)lardan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv – tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talaba (yoki o'quvchi)ni kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganligiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirilgan bilimlarni o'zlari tamonidan baholashga qodir zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

SHuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv - tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularni ta'limda qo'llanilishiga oid bilimlar, tajriba talaba (yoki o'quvchi)larni bilimli va etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)ni faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol (Inter -bu o'zaro, act- harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishini anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyatlari – bilish va kommunikativ

faoliyatini tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilan bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatigi ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rnini qisman talaba (yoki o'quvchi)larning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talaba (yoki o'quvchi)larning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ularga:

- talaba (yoki o'quvchi)larning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;

- talaba (yoki o'quvchi)larning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiylikni ta'minlash;

- talaba (yoki o'quvchi)larning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;

- pedagog va talaba (yoki o'quvchi)larning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya – faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proektor yoki boshqa texnik vositalar. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)ning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyaga bog'liq. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)lar o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talaba (yoki o'quvchi) mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib o'zlari xulosa qila

olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu - o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talaba (yoki o'quvchi) ning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)ning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tamonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda talaba (yoki o'quvchi) bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'lar. Bularning hammasi o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)larga bog'liq. SHu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, talaba (yoki o'quvchi)larning imkoniyati va ehtiyojini va hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. SHundagina kafolatlangan natijaga erishishlari mumkin. Qisqacha aytganda, talaba (yoki o'quvchi)ni ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar , interfaol uslublarning soni juda ko'payib ketgan. Biz ularning ta'lim muassasalarida keng tarqalganlari, o'qitiladigan aniq fan va predmetlarga qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi pedagogik texnologiyalarning foydalanish uslubiyatini keltiramiz.

Hozirgi kunda o'qitish jarayonini samarali va natijali bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilgan quyidagi interfaol uslublarning va o'qitish texnologiyalarining barchasi mamlakatimizning barcha umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'lim muassasalari, o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari va fakultetlarda keng miqyosda qo'llanilib kelinmoqda hamda ijobiy natijalar bermoqda. Quyida o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlarda ijobiy natija bergan bir qator interfaol texnologiyalarning maqsadi, qo'llanilish tartibini keltiramiz.

“Tanishuv” texnologiyasi, texnologiyaning maqsadi: -o'quv jamoasi ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish samimiy do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish.

- talaba (yoki o'qituvchi)larning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish.

- auditoriyaning ishlashi uchun qulay sharoitni vujudga keltirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: mashg'ulot boshida o'qituvchi o'quv jarayoni qatnashchilarini kichik guruhlariga ajratadi. Har bir kichik guruhga yilning bir faslida tug'ilgan talabalarni kiritish mumkin. O'qituvchi guruhlarni joylariga o'tkazib, ularga quyidagi topshiriqlarni beradi:

- o'z tug'ilgan faslingizga xarakteristika bering (badiiy - musiqiy, sahnali, hazil – mutoyibali va xokazo)

- yilning shu faslida tug'ilganlarning umumiy xarakteri bilan hamda guruh qatnashchilarining umumiy o'hshashliklari va o'ziga xos tamonlari bilan tanishtirish;

- talaba (yoki o'qituvchi)larning bu fasldagi faoliyatini so'zlab berish;

- boshqa fasldagi guruh qatnashchilariga bag'ishlangan fikr yoki bag'ishlov yaratish va ijodiy tilaklar bildirish .

O'qituvchi berilgan topshiriqni talabalar tamonidan bajarishi uchun tayyorlanishga vaqt ajratadi va ularni taqdimot qoidalari bilan tanishtiradi, talaba (yoki o'quvchi)larning tayyorlanishlari uchun sharoit yaratadi.

Guruhlar tayyorgarlikni boshlaydilar.

Guruhlarning chiqishi 4 ta topshiriq aks etgan adabiy-musiqiy kompozitsiya shaklidan ham tayyorlanishi mumkin.

Keyingi bosqichda guruhlar tayyorlagan ijodiy ishlarini namoyish etadilar. Har bir chiqish tugagach, boshqa guruh qatnashchilari namoyish etilgan ijodiy ishni to'ldirishlari va mavzuga oid savollar berishlari mumkin.

Oxirgi bosqichda o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasar ekan, auditoriyaga quyidagi savollar bilan murojaat qilib, talaba (yoki o'quvchi)larni ochiq muloqotga chaqiradi:

- guruh qatnashchilari bir-birlari haqida nimalarni bilib olishdi;
- auditoriyada bir-birlariga ko'nikish holati qanday o'zgardi;
- qanday savollar va muammolar hal qilinadi;
- qatnashchilar dars davomida qanday sifatlarni ko'rsata oladi;
- har bir kishi o'zi uchun qanday xulosa chiqardi;
- demak, biz qandaymiz?

“Tushunchalar tahlili” texnologiyasi mohiyati, maqsadi va qo'llanilishi : ushbu uslub o'tilgan (chorak, semestr yoki o'quv yilida tugagan) o'quv predmeti yoki bo'lim barcha mavzularini talaba (yoki o'quvchilar)lar tomonidan yodga olish biron bir mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o'z izohlarini berish shu orqali o'z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o'qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha talaba (yoki o'quvchi)larni baholay olishga yo'naltirilgan.

Texnologiyaning maqsadi: talaba (yoki o'quvchi)larni mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek, o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatishdan iborat.

Texnologiyaning qo'llanilishi: o'quv mashg'ulotlarning barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallanganda) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin talaba (yoki o'quvchi)larning bilimlarini tekshirib olish uchun mo'ljallangan. Ushbu uslubni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida yakka, kichik guruh hamda jamoa shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi. Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, tayanch tushunchalar ro'yxati, qalam yoki ruchka, slayd.

«Tushunchalar tahlili» uslubidan bir darsning o'zida dars boshlanishidan o'tgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi mavzu bo'yicha talaba (yoki o'quvchi)larning dastlabki bilimlari, qanday tushunchalarni egallaganliklari va shu darsning oxirida bugungi mavzudan nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun ham foydalanishlari mumkin.

“Zinama-zina” texnologiyasining mohiyati. Ushbu mashg'ulot talaba (yoki o'quvchi)larni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda xotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushurib to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)lar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlariga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi.

Texnologiyaning maqsadi: talaba (yoki o'quvchi)larni erkin mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga, shuningdek mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egalagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanishi: ma'ruza (imkoniyat va sharoit bo'lsa) seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o'tkazish hamda nazorat darslarida qo'llanilishi mumkin.

Mashg'ulotda foydalanilgan vositalar: A-3, A-4 formatli qog'ozlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzuchalar soniga mos) chap tamoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, flamaster yoki rangli qalamlar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi talaba(yoki o'quvchi)larni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5 bo'lgani ma'qul)

- talaba(yoki o'quvchi)larni mashg'ulotning maqsadi va uning o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog'ozning chap tamoniga kichik mavzular yozilgan varaqalar tarqatiladi;

- o'qituvchi guruh a'zolarini tarqatma materiallarda yozilgan kichik mavzular bilan tanishtirishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flamaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joyga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;

- guruh a'zolarini tarqatma materiallarda berilgan kichik mavzuni yozma (rasm, yoki chizma) ko'rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi.

- tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tamonidan tayyorlangan material, albatta, auditoriya (sinf) doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi;

- o'qituvchi guruhlar tamonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.

O'quv mashg'ulotlarning bunday tashkil etilishi talaba(yoki o'quvchi)larni mustaqil fikrlashga, o'tilgan va o'zlashtirilgan mavzularni eslashga ularni yozma (rasm, yoki chizma ko'rinishida) bayon etishga, fikrlashni umumlashtirishga o'rgatadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarining interfaol metodlardan foydalanilganda, tahsil oluvchilarning faolligi oshadi va o'quv mashg'ulotiga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi, muloqotga kirishish ko'nikmalari shakllanadi va o'tiladigan mavzuga ijobiy munosabatda bo'ladi.

Hozirda barcha ta'lim-tarbiya jarayonlarida innovatsion ta'lim texnologiyalarni ishlab chiqishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanib, tahsil oluvchilarda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv material yuzasidan bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish maqsadida ularni o'quv mashg'ulotiga qiziqtirish maqsadga muvofiqdir. Interfaol ta'lim metodlari: "Kichik guruhlarda ishlash", "Rolli o'yinlar", "Ishbilarmonlik o'yini", "Aqliy hujum", "Juftlikda ishlash", "Iqtisodchi –rahbar", "Zig-zag", "Bumerang", "Muammoli vaziyat", "Hamkorlikda o'rganish", "O'zaro savol-javob", "Klaster", "Venn diagrammasi", "FSMU", "Baliq skeleti", "B-B-B", "Keys stadi", "Sinkveyn", "SWOT taxlil", "Loyihalash" kabi usullardan iborat.

O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim metodlaridan foydalanganda, avvalo, bu metoddan foydalanishning o'rni, uning samaradorligini bilishi muhimdir. Buning uchun har bir pedagog hayotiy tajribaga ega bo'lgan, etarli bilimlar bilan qurollangan, ta'lim oluvchilarga nisbatan muammolarning echimini oldindan hal eta oladigan va ularni ta'lim oluvchilarga etkazish malakasiga ega bo'lishi lozim.

2-BOB. TA'LIMDA RIVOJLANTIRUVCHI VA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

2.1 Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari va innovatsion ta'lim shakl, metod va vositalar.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining turlari. Globallashuv sharoitida ta'lim shaxsni har tomonlama voyaga etkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi tezkor davr talabalarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim- talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari.

Bu ta'lim o'qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko'ra ta'lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim hamda tarbiya jarayonini to'raligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga etishini ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihati ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat.

Bu turdagi ta'lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlarni, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talaba imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish

taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar guruhi, talaba-talabalar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Pedagog ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat'iy rioya etishi kerak. Ushbu talablar quyidagilaran iborat:

- har bir talabani alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi;
- talabani hurmat qilishi;
- talabaning ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi;
- talabaning xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi;
- har bir talabaga tolerant munosabatda bo'lishi;
- talabaning kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
- har bir talaba uchun qulay ta'lim muhitini yaratishi;
- talabalarning mustaqil yoki kichik guruhlarga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;
- talabalarni o'z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo'l qo'yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o'rgatish;
- ta'lim jarayonida hech bir talabaga tazyiq o'tkazmaslik;
- alohida talabaning kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatmaslik;
- bordi-yu, talaba tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, ta'lim jarayonida o'zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat'iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash;
- aniqlangan sabablar asosida talabaning sha'ni, g'ururiga ziyon etkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, o'zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;
- ta'lim jarayonida har bir talaba uchun "muvaffaqiyat muhiti"ni yarata olish;
- har bir talabaga ta'lim olisha muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;

- talabning qobiliyatini o‘stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish;
- talabning shaxsini emas, balki uning aniq xatti-harakatlarini baholashi;
- pedagog sifatida har bir talabning hurmati va ishonchini qozona olishi zarur

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talabani ta’lim tizimiga moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turagi ta’lim talabalarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o‘zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to‘la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur. Talabalar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida o‘quv materialini o‘zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yonashishni, yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o‘z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali echimni topish ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Pedagog tomonidan ta’lim jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo‘llanilishi talabalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o‘stirishga xizmat qiladi.

Mashg‘ulotlarini tashkil etishda pedagoglar o‘quv axborotlarining talabalar bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqтира oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratishlari zarur.

Ta’lim jarayonida pedagoglar tomonidan:


- turli shakl,metod,vosita va texnologiyalardan samarali,maqsadli foydalanish;
- o‘quv topshiriqlarini bajarishda talabalarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish;
- talabani juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta’minlash;
- mashg‘ulotlarning loyihalashtirilishiga e’tiborning qaratilishi nafaqat o‘qitish sifatini yaxshilaydi, samaradorligini oshiradi, talabalar shaxsning rivojlanishi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi

Eng muhimi pedagoglar o‘quv mashg‘ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish xarakteriga ega bo‘lishlariga e‘tiborni qaratishlari zarur. SHuningdek, muhokama qilinayotgan masala, muammo, o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalarning mustaqil fikr bildirishlari (noto‘g‘ri bo‘lsa-da, fikr bilirishlari)ga imkon berish, nima bo‘lganda ham ularni o‘ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo‘natirilgan ta‘limga xos muhim belgilardan biri sanaladi.

Ta‘lim jarayonida quyidagilardan foydalanish shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning yana bir belgisidir:

- ijodiy topshiriqlar;
- kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar;
- muammoli vaziyatlar;
- rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari;
- bahs-munozara, debat;
- musobaqa ko‘rinishidagi bellashuvlar

Ayni vaqtda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning quyidagi turlari farqlanmoqda (2.1.1-rasm):



2.1.1-rasm. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning asosiy turlari

2.2. Ta'limda rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi ta'lim texnologiyalarining o'рни va ahamiyati.

Tanqidiy fikrlash bu – XXI asr talablarini muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishimizga imkoniyat yaratuvchi, o'rganayotgan va bajarayotgan ishimizni yanada chuqurroq anglashimizga yordam beruvchi ijobiy ko'nikmadir. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bayon etilgan yuqori kasbiy madaniyatli, ijodiy va ijtimoiy faol hayotda o'z o'rnini topa oladigan malakali kadrlarni shakllantirish vazifasini hal qilishga ham mos keladi. Xo'sh, shunday bo'lsa tanqidiy fikrlashning o'zi nima? Adabiyotlarda bu tushunchaga berilgan turli xil ta'riflarni uchratish mumkin.

Bu tushuncha haqida gapirishdan oldin, ayrim aqliy faoliyat ko'nikmalarini ko'rib chiqaylik, lekin ularni tanqidiy fikrlash deb bo'lmaydi. Esda saqlash – eng muhim fikrlash jarayoni bo'lib, busiz o'quv jarayonini amalga oshirib bo'lmaydi, lekin u tanqidiy fikrlashdan tubdan farq qiladi. Kompyuterning xotirasi har birimiznikidan anchagina yaxshiroq, lekin esda saqlash tanqidiy fikrlashni bildirmaydi. Ko'pchilik o'qituvchilar har qanday fikrlashdan ko'ra xotirani rivojlantirishni yuqoriroq qadrlaydilar, nazorat ishlari va imtihonlarda asosan talabalar xotirasi ko'lamini tekshiradilar. Lekin tanqidiy fikrlash tarafdorlari esa aqliy faoliyatning murakkabroq turlarini nazarda tutadi.

O'quv jarayonini usiz amalga oshirib bo'lmaydigan «notanqidiy fikrlash» turlaridan yana biri – murakkab g'oyalarni tushunish bilan bog'liq. Biologiya va matematika, tarix va adabiyot darslarida talabalar ba'zan o'qituvchining aytganlari yoki darslikda nima haqida yozilganligini tushunish uchun ancha «bosh qotiradilar». Tushunish, ayniqsa, agar o'quv materiali qiyin bo'lsa, murakkab aqliy jarayon bo'lib hisoblanadi. Masalan, talaba murakkab teoremani tushunish uchun bosh qotirmoqda. Albatta uning miyasida murakkab aqliy jarayonlar kechadi, lekin buni ham hozircha tanqidiy fikrlash deb bo'lmaydi. Biz o'zгалar fikrini tushunish ustida ishlar ekanmiz birinchi bosqichda bizning shaxsiy fikrlashimiz sust bo'ladi: bunda biz faqat bizgacha kimdir tomonidan yaratilganni idrok qilamiz xolos,

tanqidiy fikrlash esa, yangi, tushunib bo'lingan g'oyalar tekshirilayotganda, baholanayotganda, rivojlantirilayotganda va qo'llanayotganda sodir bo'ladi. Dalillarni eslab qolish va g'oyalarni tushunish esa tanqidiy fikrlash uchun zarur bo'lgan dastlabki shartlar bo'lib hisoblanadi, lekin ular o'zaro yaxlitlikda ham tanqidiy fikrlashni anglatmaydilar.

«Tanqidiy fikrlash» tushunchasiga mos kelmaydigan yana bir fikrlash turi bu – ijodiy yoki ichki his bilan (intuitiv) sezib fikrlashdir. Sportchi, rassom, musiqachilar miyasida ham murakkab fikrlash jarayoni sodir bo'ladi, lekin ular buni hatto sezmaydilar ham.

«Tanqidiy fikrlash» atamasidan pedagogik muhitda anchadan beri foydalanib kelinadi va turli pedagoglar buni xilma-xil tarzda tushunadilar. Ko'pchilik o'qituvchilar va metodistlar uchun tanqidiy fikrlash «yuqori tartibdagi» fikrlashni bildiradi – yuqori degani shu ma'nodaki, U Benjamin Blum tizimiga ko'ra o'rganish qobiliyatlarining so'nggi oliy pog'onasida turadi. Faylasuflar tanqidiy fikrlash deganda, odatda mantiqiy fikrlash va isbotlash ko'nikmalarini tushunadilar, uning yordamida talabalar diqqat bilan o'qish, chuqur munozaralar yuritish va yozuvda o'z fikrlarini aniq va o'ylab ifoda etish imkonini oladilar. Adabiyot nazariyotchilari va tarixchilar uchun matnning tarkibiy qismlarini ajratishga va matnning kitobxonga ta'sir qilish usullarini tanqidiy qayta mushohada qilishga hamda muallif asarni yaratishda amal qilgan sabablarni aniqlashda yordam beradigan matnga yondashish «tanqidiy» deb hisoblanadi.

Dayana Xalperi «Psixologiya kriticheskogo myshleniya» kitobida tanqidiy fikrlash «fikr yuritishning shunday ko'rinishini anglatadiki, u vazminlik, mantiq va maqsadga yo'naltirilganlik bilan ajralib turadi»,- deb yozadi.

Djeni Stil, Kert Meredis, CHARlz Templarning «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qish va yozish» (O'YOTF) loyihasida quyidagicha ta'kidlanadi: «Odam tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g'oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo'lgan oqibatlarini ham e'tiborga oladi. Bunda odam bu g'oyalarni dastlab ma'lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtai-nazarlar

bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo‘shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o‘z nuqtai-nazarini ishlab chiqadi». Tanqidiy fikrlash – g‘oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg‘unlashuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta fikrlash va qayta qurishdek murakkab jarayondir. Bu faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtda ro‘y beradigan jarayon ham bo‘lib hisoblanadi. Tanqidiy fikr egasiga hiyla-nayranglar kamroq ta’sir qiladi, o‘zining shaxsiy qarashlar tizimi bo‘lgani uchun ular turli xavf-xatardan holi bo‘ladilar.

Tanqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati ko‘pfikrlilik nuqtai-nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda ular boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo‘lib, unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo‘llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e’tibor beriladi.

Tanqidiy fikrlash muloqot va guruh bilan ishlash malakalarini rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlash ta’lim jarayoniga jo‘shqinlik baxsh etadi, mashg‘ulotlarni o‘qituvchi va talaba uchun quvonchga aylantiradi.

Hozirda talabalarni o‘qishga o‘rgatish va tanqidiy fikrlashni egallashlari muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi. Yangi axborotlarga duch kelar ekan, talabalar uni mustaqil ravishda baholashi, unga turli xil nuqtai-nazardan qarashi, undan o‘z ehtiyoj va maqsadlari yo‘lida foydalana olish imkoniyati to‘g‘risida xulosa yasay olishlari zarur. Haqiqiy tanqidiy fikrlaydigan odam bo‘lib etishish uchun talabalar ijodiy fikrlab, o‘zini sinab ko‘rishi va bunga oid malakalarni egallashi zarur.

Tanqidiy fikrlashni paydo qilish uchun quyidagilar bo‘lishi kerak:

- talabada o‘ziga xos nuqtai-nazarni paydo qilish;
- bir fikrdan boshqasining afzalligini asoslash mahorati;
- murakkab muammolarni echish mahorati;
- bahsni dalillab olib borish;
- yagona fikrni ishlab chiqish uchun birgalikda ishlash mahorati;
- qarashlar va tasavvurlarga hayotiy tajriba qanday ta’sir qilishini tushunish.

Talabalarni haqiqatan ham dolzarb muammo haqida fikrlash imkoniyatidan mahrum qilib, mantiqiy jarayonlarni mavhum tarzda o'rganish emas, balki talabalarni tezda faol o'ylash jarayoniga kirishishga, uni tajribada amalga oshirishga imkon beradigan metod eng yaxshi hisoblanadi. Bundan tashqari, talabalarni haqiqatda bezovta qiluvchi muammolar haqida so'z borganda tashabbus ularning o'zidan chiqqanda, tanqidiy fikrlash yaxshiroq rivojlanadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu ma'lum yosh davrida o'rgatish tugallanishi va unutilishi mumkin bo'lgan masala ham emas. Tanqidiy fikrlashga olib boradigan aniq-ravshan yo'llar yo'q. Biroq o'qitish shartlarining muayyan to'plami borki, uning yordamida tanqidiy fikrlashni tarbiyalash mumkin. Jumladan, quyidagi shartlar zarur:

1. Tanqidiy fikrlash tajribasini orttirishga vaqt va imkoniyat berish.
2. Talabalarga fikrlash imkoniyatini berish.
3. Turli g'oya va fikrlarni qabul qilish.
4. O'quv jarayonida o'quvchilarning faol qatnashishlariga imkon berish.
5. Talabalarni ularning ustidan hech kim kulmasligiga ishonitirish.
6. Har bir talabani u tanqidiy mulohaza yuritishga qodir ekanligiga ishonitirish.
7. Tanqidiy fikrlash paydo bo'lishini qadrlash.

Shu bilan birga, talabalar:

1. O'z-o'ziga ishonchni rivojlantirib, o'z g'oya va fikrlarining qimmatini tushunishlari kerak.
2. Ta'lim jarayonida faol qatnashishlari lozim.
3. Turli fikrlarni hurmat bilan eshitishlari kerak.
4. O'z mulohazalarini shakllantirishga tayyor bo'lishlari yoki undan o'zlarini tiyishlari lozim.

Tanqidiy fikrlashning elementlari quyidagilardan iborat:

- tanqidiy fikrlash – bu mustaqil fikrlashdir;
- axborot – tanqidiy fikrlashning boshlanishidir;

- tanqidiy fikrlash savolning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshladi;

- tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi;

- tanqidiy fikrlash – ijtimoiy fikrlashdir.

Birinchi, tanqidiy fikrlash – bu mustaqil fikrlashdir.

Mashg'ulot tanqidiy fikrlash tamoyillari bo'yicha yaratilar ekan, har bir ishtirokchi boshqalarnikidan mustasno holda o'zining g'oyasi, baholashi va ishonchiga ega bo'ladi. Hech kim biz uchun tanqidiy fikrlab bermaydi. Biz faqat o'zimiz uchungina bunday fikrlay olamiz. Demak, fikrlash yakka tartibli xarakterga ega bo'lgandagina, uni tanqidiy fikrlash deb atash mumkin. Talabalar o'z aqli, fikrlashi va eng murakkab savollarga ham o'zlari javob topa olish erkinligiga ega bo'lishi kerak. Qanday fikrlash zarurligini har bir talaba o'zi uchun o'zi hal qiladi. SHunday qilib, mustaqillik tanqidiy fikrlashning eng muhim jihatlaridan biridir.

Ikkinchi, axborot tanqidiy fikrlashning natijasi emas, balki uning boshlanishidir. Bilim odamni tanqidiy fikrlashga undovchi motiv bo'lib hisoblanadi. Ba'zan «bo'sh kalla bilan fikrlash qiyin», deb ham aytishadi. Murakkab fikrni yaratish uchun anchagina «xom ashyo» - dalillar, g'oyalar, matnlar, nazariyalar, ma'lumotlar, konsepsiyalarni qayta ishlash zarur.

Har qanday yoshda ham tanqidiy fikrlash mumkin: faqat talabadagina emas, balki hatto birinchi sinf o'quvchilarida ham hayotiy tajriba va bilimlar mavjud bo'ladi. Bolalarning fikrlash qobiliyatlari o'qitish natijasida yanada takomillashib boradi. Hatto juda yosh bolalar ham tanqidiy fikrlash va butunlay mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega. Aynan tanqidiy fikrlash tufayli odatdagi bilish jarayoni alohidalik va anglashuvchanlik, uzviylik va samaradorlik kasb etadi.

Uchinchi, tanqidiy fikrlash, savolning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi. Insoniyat o'z tabiatiga ko'ra qiziquvchandir. Biz biron-bir yangilikni sezar ekanmiz, albatta uning mohiyatini bilishni xohlaymiz. Qandaydir tarixiy obidani ko'rar ekanmiz, bizda uning ichkarisiga kirish istagi paydo bo'ladi. «Barcha hayvonot olamida,- deb yozadi

kimyogar va faylasuf Mikael Poloniy,- uning eng sodda shakli bo'lgan chuvalchangdan, ehtimol hatto amyobadan boshlab, biz adabiy ehtiyotkorlik harakatini, ehtiyojni bevosita qondirishga bog'liq bo'lmagan izlanuvchanlik faoliyatini: har qanday jonli mavjudotni o'z atrofini aql-zakovat bilan nazorat qilishga intilishini kuzatamiz». Qiziquvchanlik har qanday tirik mavjudotning ajralmas xususiyatidir. Bu xususiyat yosh bolalarda ayniqsa quchli bo'ladi. Biroq, har qanday bosqichdagi haqiqiy bilish jarayoni talabning muammoni hal qilishi, o'zining shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlaridan paydo bo'lgan savollarga javob izlashi bilan belgilanadi.

Amerikalik faylasuf va pedagog J.Dyuining aytishicha, agar talabalar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlasalargina, ularda tanqidiy fikrlash paydo bo'ladi. «O'quv jarayonining boshlang'ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo'lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir». «Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o'zining shaxsiy yo'lini izlagandagina, o'quvchi haqiqatan ham fikrlaydi».

Bundan xulosa qilish mumkinki, o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rar ekan, talabalar to'qnashishi mumkin bo'lgan muammolar doirasini aniqlashi, so'ngra esa, talabalarni bu muammolarni o'zlari mustaqil ravishda shakllantirishlariga tayyorlashi zarur. Tanqidiy fikrlash tufayli o'qish eski «oliy maktab» ishidan aniq maqsadga yo'nalgan, mazmunli faoliyatga aylanadi hamda bu faoliyat davomida talabalar haqiqiy aqliy ish bajarib, haqiqiy hayotiy muammolarni hal qiladilar. Ular dalillar to'plab, matnlarni tahlil qilib, teng kuchli nuqtai-nazarlarni taqqoslab hamda jamoa imkoniyatlaridan foydalanib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob izlaydilar va uni topadilar.

To'rtinchidan, tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi. Tanqidiy fikrlovchi kishi muammoning o'z shaxsiy echimini topadi va bu qarorni oqilona, asosli dalillar bilan mustahkamlaydi. U boshqa qarorlar bo'lishi mumkinligini ham

tan oladi, lekin o'zi tanlagan qaror boshqalarga nisbatan eng mantiqiy va oqilona ekanligini isbotlashga harakat qiladi.

Har qanday ishonchli dalil uch asosiy qismdan iborat bo'ladi. Tasdiqlash – dalil markazi, uning mazmuni bo'lib hisoblanadi (ba'zan u tezis, asosiy g'oya yoki qoida deb yuritiladi). Tasdiqlash bir necha dalillar bilan mustahkamlanadi. Dalillarning har biri o'z navbatida isbotlar bilan mustahkamlanadi. Statistik ma'lumotlar, matn parchasi, shaxsiy tajriba, umuman olganda, ushbu ishonchli dalillarni isbotlashga yordam beruvchi va muhokamaning boshqa ishtirokchilari tomonidan tan olinishi mumkin bo'lgan barcha g'oyalardan isbotlovchi sifatida foydalanish mumkin. Ishonchli dalillarning yuqorida qayd qilingan barcha qismlari tasdiq, dalil va isbotlash negizida, uning to'rtinchi qismi bo'lgan asos turadi. Asos – bu qandaydir yo'naltiruvchi hisobning boshlang'ich nuqtasi bo'lib, u notiq uchun ham, yoki yozuvchi va uning muxlislari uchun ham umumiy bo'ladi va u barcha ishonchli dalillar uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishonchli dalillar, unga qarama-qarshi dalillarni mavjud bo'lishi, ularni yo oshirib ko'rsatilishi, yoki qabul qilinishi mumkinligini ham hisobga olgandagina yutadi. Boshqacha nuqtai-nazarlarning tan olinishi ishonchli dalillarning ta'sir kuchini yanada oshiradi. O'ta ta'sirchan dalillar bilan qurollangan tanqidiy fikrlovchi amaliyotda bunday kishining fikrini o'zgartirish mumkin emas. kishi, hatto katta obro'ga ega bo'lgan fikrga ham qarshi tura oladi,

Beshinchidan, tanqidiy fikrlash – ijtimoiy bo'lib ham hisoblanadi (har bir inson ijtimoiy organizmdir). Har qanday fikr, agar u boshqalar bilan o'rtoqlashilgandagina o'tkirlashadi yoki faylasuf Xanna Arendt yozganidek: «kimningdir huzurimda bo'lishi, meni barkamollikka erishtiradi». Bahslashuvda, o'qiganimizda, muhokamada ishtirok etganimizda, e'tiroz bildirganimizda, boshqalar bilan fikr almashganimizda biz o'z nuqtai-nazarimizni aniqlashtiramiz va uni chuqurlashtiramiz. SHuning uchun ham tanqidiy fikrlash yo'nalishida ishlayotgan pedagoglar o'z mashg'ulotlarida juftlikda yoki guruhlarda ishlashning turli shakllaridan foydalanishga, bunda debat va munozaralardan samarali

foydalanishga hamda talabalar yozma ishlarini namoyish qilishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishga intiladilar. Umuman olganda, har qanday tanqidiy fikrlovchi biron-bir jamoa bilan ishlaydi va faqat o‘z shaxsini konstruksiyalashga nisbatan anchagina keng ma’nodagi vazifalarni hal qiladi.

Shuning uchun ham tanqidiy fikrlash yo‘nalishida ishlaydigan o‘qituvchi: vazminlik, boshqalarni eshitishga o‘rganish, o‘z fikriga javobgarlik kabi o‘zaro samarali fikr almashish uchun zarur bo‘lgan sifatlarni shakllantirishga ko‘proq e‘tibor beradi. Shunday qilib, bu o‘qituvchilar o‘quv jarayonini auditoriyadan tashqarida kechayotgan haqiqiy hayotga yaqinlashtirishga erishadilar.

Tanqidiy fikrlash yozma ishda yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Yozuvda fikrlash jarayonini kuzatish mumkin bo‘ladi va bu o‘qituvchi uchun ham qulaylik yaratadi. Yozayotgan talaba doimo faol bo‘ladi. U doim mustaqil fikrlaydi va bunda u o‘zida mavjud bo‘lgan barcha bilimlardan foydalanadi. U o‘z fikrini mustahkamlash uchun etarli darajadagi ishonchli dalillarni qatorlashtirib tashlaydi. Bundan tashqari u o‘z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga ega bo‘ladi. Chunki xat yozuvchi, uni o‘qiydiganga mo‘ljallab yozadi. Talaba uchun eng qimmatlisi - o‘qituvchining uning ishiga qiziqishi va unga hurmat bilan qarashi, o‘z fikrlari to‘g‘risida kursdoshlari, boshqa o‘qituvchilar, ota-onalar va hatto notanish kishilar bilan o‘rtoqlashish imkoniyatiga ega bo‘lganligidir. Shuning uchun yozishni tanqidiy fikrlashning eng muhim vositasi deb hisoblash mumkin.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bosqichlari (2.2.1-jadval)

Chaqiriq (Da'vat)	Anglash	Fikrlash
<p>1. Yangi ma'lumotlarni ma'lum bo'lganlar bilan bog'lash.</p> <p>2. Talabalarni faollashtirish.</p> <p>3. Taklif etilgan mavzuni ko'rib chiqishga qiziqish tug'diriladi va maqsad aniqlanadi</p>	<p>1. Chaqiriq bosqichida yaratilgan qiziqish va harakatlanish inertsiasini, faollikni qo'llab-qo'vvatlash.</p> <p>2. Talabalarda o'z tushinishini kuza-tishga doir intilish-larini qo'llash.</p> <p>3. Yangi o'quv materia-lining tushunilishiga erishish.</p>	<p>1. Talabalar yangi fikr va axborotlarni o'z so'zlari bilan ifodalashga harakat qilib ko'rishlari kerak.</p> <p>2. Tushunganlarni o'z so'zlari bilan ifodalab, qayta tuzganda shaxsiy anglangan kontekst yuzaga keladi.</p> <p>3. Jonli fikrlar almashinuviga erishiladi.</p>

Tanqidiy fikrlash asoslari uch bosqich (faza)dan iborat bo'ladi, bular: chaqiriq (da'vat), anglash, fikrlash (mulohaza) bosqichlaridir.

Tanqidiy fikrlash CHAQIRIQ deb ataladigan bosqichdan boshlanadi, uning davomida talabalarning qiziqishi uyg'onadi, zarur savollar tug'iladi va bunday bilimlarni olish uchun sabablar shakllanadi. Shundan keyin ma'noni ANGLASH

bosqichi keladi, uning davomida o'quvchilar izlash uchun rag'bat oladilar, ba'zi hollarda bunga o'rganadilar ham. FIKRLASH bosqichi kulminatsiya bo'lib hisoblanadi, uning davomida talabalardan o'z bilimlarini umumlashtirish, bilib olgan narsalarni bungacha bilgan narsalari bilan taqqoslash, ularning savollariga javoblarni qay darajada olganiga qarab baholash (va zaruratga qarab yangi savollarni shakllantirish), bilgan narsalarini yanada katta muammolarga qo'llash, bilib olgan narsalarini munozara qilish va himoya qilish kabilar iltimos qilinadi.

Chaqiriq bosqichining ahamiyati shundan iboratki, unda yangi bilimlar, o'zi mustaqil tanlagan maqsad uchun intilish anchagina kuchli bo'ladi. Chaqiriq bosqichida faoliyatning bir nechta bilim beruvchi muhim turlari amalga oshiriladi. Birinchidan, o'rganuvchi mazkur mavzu to'g'risida bilganlarini tiklashda faol ishtirok etadi. Bu esa uni o'z bilimlarini tahlil qilishga va tez orada batafsil ko'rib chiqiladigan mavzu haqida o'ylashni boshlashga majbur etadi. Boshqa ikkita bosqich tushuntirilganidan keyin dastlabki harakatning ahamiyati ravshanroq bo'ladi.

Talabalarni bilganlari to'g'risida o'ylashlariga ko'maklashish, qiziqish uyg'otish amalga oshadi. Talabalar yangi bilimlar qo'shilishi mumkin bo'lgan o'z bilimlarining darajasini aniqlaydi. Agar bilim odam bilgan va tushunganlar kontekstida olingan bo'lsa, puxta bo'ladi. Agar axborot talabaga oldingi bilimlar bilan bog'lanmasdan berilsa, u tez yo'qolib ketadi.

Ta'lim jarayoni – yangilarni ma'lum bo'lganlar bilan bog'lash jarayonidir. Talabaning yangi tasavvurlari ilgarigi bilimlari va tasavvurlari asosida quriladi. Talabalarga ilgarigi bilim va tasavvurlarini tiklashga yordam berib, yangi axborotlarni uzoq muddatga tushunish uchun keng asoslar yaratish mumkin.

Chaqiriq bosqichining ikkinchi maqsadi – o'rganayotganlarni faollashtirishdan iboratdir. Ta'lim – intilish talab etadigan aktiv faoliyatdir.

Talabalar yangi axborotni ongli, puxta tushunishlari va yangi axborotga tanqidiy yondashishlari uchun ta'lim jarayonida faol qatnashishlari kerak. Talaba belgilangan maqsad asosida o'ylab, fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash orqali faollashadi.

Bilimlarni namoyish qilish (o'ziga va sherigiga) og'zaki yoki yozma nutq yordamida, faol fikrlash orqali sodir bo'ladi. SHunday qilib, ilgari olingan bilimlar anglash darajasiga olib chiqiladi. Endi ular yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun negiz bo'lishi mumkin. Bu esa talabalarga yangi axborotni avval bilganlari bilan samarali bog'lashga imkoniyat beradi, chunki chunki tushunish uchun kontekst paydo bo'ldi.

Chaqiriq bosqichining uchinchi maqsadi – bunda taklif etilgan mavzuni ko'rib chiqishga qiziqish tug'diriladi va maqsad aniqlanadi. Qiziqish va maqsadning bo'lishi talabalarning faolligini yanada oshiradi. Maqsadni aniqlash ta'limda eng muhimdir.

Maqsad ikki xil bo'ladi: o'qituvchi tomonidan yoki taklif etilgan matnda qo'yilgan maqsad va talaba mustaqil ravishda tanlab olgan maqsad. Mustaqil ravishda tanlangan maqsadlar, tashqaridan majburiy kiritilgan maqsadlardan kuchliroq bo'ladi. Shaxsiy qiziqish shaxsiy maqsadni belgilaydi. Agar barqaror qiziqish bo'lmasa, o'kuv faoliyatining motivatsiyasi pasayadi. Umuman olganda talaba o'z savollariga javob olishi orqali haqiqiy tushunishga erishadi.

Anglash bosqichining ahamiyati. Anglash fazasida yangi axborot da'vat fazasida faollashtirilgan axborot bilan bog'lanadi.

Bu bosqichning asosiy vazifasi, birinchidan, chaqiriq bosqichida yaratilgan qiziqish va harakatlanish inersiyasini, faollikni qo'llab-qo'vvatlashdan iborat. Ikkinchi muhim vazifasi talabalarda o'z tushunishini kuzatishga doir intilishlarini qo'llashdan iboratdir Sub'ektning ichki jarayonlari va holatlarini o'zi tomonidan bilib borishi refleksiya (ba'zan, meta-bilish sifatida ham qaraladi) deb ataladi.

Refleksiya (lotincha reflexio – ortga nazar) falsafiy tushuncha bo'lib, u individ ongida sodir bo'layotgan o'zgarishlar haqida o'zining mulohaza yuritishini anglatadi. Refleksiya – bu sub'ektning faqatgina o'zini-o'zi tushunishi bo'libgina qolmay, balki u «refleksiyalanuvchi»ni, uning shaxsiy xususiyatlari, ta'sirga javob berishining ifodalanganligi va bilishga oid tasavvurlarning oydinlashtirilishi va boshqalar tomonidan tushunilishini ham anglatadi.

Fazaning eng muhim vazifasi esa, yangi o'quv materialining tushunilishiga erishishdan iboratdir. Faol talabalar xabarni eshitib, odatda savol beradilar yoki

tushunmaganlarini keyinchalik aniqlash uchun yozib qo'yadilar. Sust o'quvchilar esa bunday qilmaydilar, ular vujudga kelgan chalkashliklar, anglashilmovchiliklar haqida yoki nimanidir tushunmay qolganlarini o'ylab ham ko'rmaydilar.

Talabalar o'z tushunishlarini kuzatganda, yangi axborotni o'zlaridagi tasavvurlar bilan solishtiradilar, ongli ravishda yangilarni avval ma'lum bo'lganlari bilan bog'laydilar. Ular yangi tushunishni yaratish uchun eski va yangi bilimlar orasida ko'priklar quradilar.(quyidagi chizmadagi kabi):

Fikrlash (mulohaza qilish) bosqichining ahamiyati. Bu fazada bilimlar mustahkamlanadi va o'rganilayotgan masala bo'yicha oldingi fazalarga nisbatan boshqacha (to'laroq) tasavvur shakllanadi va «o'qiganlik»ning ortishiga olib keladi. Talaba o'z o'quv maqsadiga erishgandagina bunday o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin. Shunday qilib, bu fazada talabani o'qiganlikning pastroq darajasidan uning yuqoriroq darajasiga o'tkazish sodir bo'ladi. Bu talabaning yangi g'oya va axborotlarni o'z so'zi bilan ifodalay olishida aks etadi. Talabalar o'zlariga ko'proq yoqqan narsani yaxshiroq eslab qoladilar.

Fikrlash bosqichida bir nechta muhim maqsadlarga erishish rejalashtiriladi. Birinchi navbatda, o'quvchilar yangi fikr va axborotlarni o'z so'zlari bilan ifodalashga harakat qilib ko'rishlari kerak.

Agar sizga eslab qolish kerak bo'lsa – unutasiz. Agar sizga tushunish kerak bo'lsa – eslab qolasiz.

Ta'lim natijalarining qancha uzoq muddatga saqlanishi hamda tushunish darajasi turli odamlarda har xildir. Tushunganlarni o'z so'zlari bilan ifodalab, qayta tuzganda shaxsiy anglangan kontekst yuzaga keladi.

Fikrlash bosqichining ikkinchi maqsadi talabalar o'rtasida fikrlar bilan jonli almashuv hisoblanadi, bu ularga o'z so'z boyligini kengaytirishga hamda boshqa talabalarning tasavvurlari bilan tanishishga imkon beradi.

O'zgaruvchan tanqidiy fikrlash turli fikrlar rag'batlantiriladigan muhitda kuchayadi. Shunda talabalar ularni hisobga olib, o'z tasavvurlarini qurishlari mumkin.

Tanqidiy fikrlashning asoslari o'qituvchiga shunday sharoitlar yaratadiki, natijada u quyidagilarga erishadi:

- talabalarning fikrlashini faollashtiradi;
- ta'lim (talabalar) maqsadini ajratadi;
- faol munozaralarga imkoniyat yaratadi;
- o'qishga qiziqishni oshiradi;
- faol o'quv faoliyatini ta'minlaydi;
- o'zgarishlarni rag'batlantiradi;
- fikr yuritishni rag'batlantiradi;
- o'quvchilarga turli xil fikrlarni tinglashga imkoniyat beradi;
- talabalarga o'z savollarini berishda yordam beradi;
- talabaga o'z-o'zini ro'yobga chiqarishga imkon beradi;
- talabalar tomonidan axborotlar qayta ishlanishini ta'minlaydi;
- talabalarda tanqidiy fikrlashga imkoniyat yaratadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish strategiyalari (2.2.2-jadval)

Da'vat bosqichida qo'llaniladigan strategiyalar	Anglash bosqichida qo'llaniladigan strategiyalar	Fikrlash bosqichida qo'llanidigan strategiyalar
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili.	Semantik xususiyatlar tahlili. B-B-B chizmasi. O'qitish bo'yicha qo'llanma. Bir-biriga o'rgatish. Bir-biridan so'rash. Ikki qismli kundaliklar.	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Kontseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli. Besh minutlik esse. O'n minutlik esse.

2.3. Ta'limda tanqidiy fikrlashni samaradorligini oshirish usullari.

Zamonaviy sharoitda talabalarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda.

Ayni o'rinda ta'limning innovatsion xarakterga ega ushbu shakllari to'g'risida so'z yuritiladi.

I. Amaliy o‘yinlar. O‘yin – kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli sanaladi

Zamonaviy sharoitda ta‘lim amaliyotida amaliy-innovatsion xarakterga ega o‘yinlardan samarali foydalanilmoqda.

Amaliy o‘yinlar – muayyan amaliy harakatlarning tashkil etilishini imitatsiyalash imkoniyatini beradigan o‘yinlar

Ta‘lim amaliyotida qo‘llaniladigan amaliy o‘yinlar o‘z-o‘zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko‘p holatlarda “didaktik o‘yinlar” deb yuritiladi.

Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o‘yin sub’ekt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari – mehnat, o‘qish bilan birga o‘yin ham uning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yinlar vositasida katta avlod tomonidan to‘plangan hayotiy tajriba, o‘zlashtirilgan bilim, turmush tarzi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan.

O‘yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta‘lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o‘yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bevosita o‘yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma‘naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. “Maktabgacha yoshdagi bola o‘yin faoliyatida o‘qish va mehnatga tayyorlanadi. Yosh ulg‘aygan sari o‘yinning roli biroz kamayib boradi. O‘yinlarning tarbiyaviy ahamiyati bolaning butun hayoti davomida saqlanib qoladi”⁷.

Agarda jismoniy xatti-harakatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘yinlar bolalarda chaqqonlik, epchillik, chidamlilik, qat’iylikni tarbiyalasa, intellektual,

⁷ Tarbiya /Ota-onalar va murabbiylar uchun entsiklopediya / Tuzunchi: M.N.Aminov. Ma`sul muharrir : A.Majidov. – Toshkent: 2010.

konstruksiyali o‘yinlar ularni o‘ylashga, fikrlashga, mantiqiy tafakkur yuritishga o‘rgatadi.

“O‘yin inson hayotining hayotining har bir davri uchun uning ruhiy rivojlanishini belgilovchi etakchi faoliyat turi hisoblanadi. Faqat o‘yinda va o‘yin orqali bola voqelikni, shu jumladan, kishilar ijtimoiy munosabatlarini, hulqini, xatti-harakatlarini bilib oladi”⁸.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘yin nafaqat bolalar, balki kattalar hayotidan ham alohida o‘rin egallashga muvaffaq bo‘lindi. Zamonaviy sharoitda intellektual, kompyuter, iqtisodiy, harbiy, kasbiy, sport va maishiy hodiq chiqarishga ko‘maklashadigan o‘yin modellari ham kattalar orasida keng ommalashgan.

Zamonaviy pedagogikada o‘yinlar ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta‘lim oluvchilarning o‘quv-bilish faolligini kuchaytirish maqsadida quyidagi tarzda qo‘llaniladi:

- tushuncha, mavzu va alohida bo‘lim mohiyatini o‘zlashtirishda alohida texnologiya sifatida;
- pedagogik texnologiyalarning elementi sifatida;
- o‘quv mashg‘uloti shakli yoki uning bir qismi sifatida;
- sinf (auditoriya)dan tashqari ishlardan biri (“Zakovat”, “Bilimdon”, “Huquq fani bilimdoni” va b.) sifatida.

O‘yinning mohiyati va tuzilishi ma‘lum ko‘nikma, malaka, qobiliyat va sifatlarning har bir ishtirokchida butun o‘yin davomida shakllanishini ta‘minlaydi. Ta‘lim jarayonda o‘yin texnologiyalaridan foydalanishda o‘qituvchi pedagogik vazifalarini ssenariyda aniq ifodalay olishi zarur.

O‘yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, o‘zining hayotda o‘rnini belgilash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishan iborat asosiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini yaratadi.

⁸ Tarbiya /Ota-onalar va murabbiylar uchun entsiklopediya / Tuzunchi: M.N.Aminov. Ma‘sul muharrir : A.Majidov. – Toshkent: 2010

O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi hamda o‘yin jarayonida shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

O‘quv faoliyatining asosiy motivi – bu o‘quv-bilish motivi bo‘lsa, o‘quv faoliyatining eng muhim motivatsiyasi esa talabada o‘zi tanlangan va asoslarini o‘zlashtirayotgan kasbga bo‘lgan qiziqishi sanaladi. Talaba o‘quv jarayonidagi egallagan bilimlaridan, kasbiy malakalari va ko‘nikmalaridan hissiy jihatdan qoniqa olishi lozim. Bu vazifani hal qilishda o‘qitish jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. O‘yinli texnologiyalari, shuningdek, talabalarning ijodiy qobiliyati va kreativ tafakkurini o‘stiradi.

Pedagogik maqsadda foydalanilayotgan o‘yinlar o‘yin texnologiyalari deb nomlanadi.

O‘yin texnologiyalari (o‘yin ta’limi) – ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri. O‘yin texnologiyalari ta’lim oluvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma’lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayoni ishtirokchilari (m: ta’lim oluvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa a’zolari, ta’lim muassasalarining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarining vakili va b.) sifatida turli rollarni bajarish talaba (o‘quvchi)larga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish asosida ma’lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy va ruhiy tayyorgarlikka erishish nuqtai nazaridan yordam beradi.


O‘quv mashg‘ulotlaridan o‘yinlar va o‘yinli vaziyatlarni qo‘llash quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- didaktik maqsad talabalar oldiga o‘yinli topshiriq shaklida qo‘yiladi;
- o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysundiriladi;
- didaktik o‘quv materialdan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi;

- o'quv faoliyatida didaktik vazifani o'yin vazifasiga aylantiruvchi musobaqa elementi qo'llaniladi;

- muvaffaqiyatli bajarilgan didaktik topshiriq o'yin natijasi sanaladi.

O'quv jarayonida o'yin texnologiyalarining o'rnini, roli, shuningdek, o'yin elementlari hamda ta'limning o'zaro uyg'unligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan pedagogik o'yinlar mohiyati, funksiyasi va turlarining qanchalik tushunilishi bilan belgilanadi. Aksariyat pedagogik o'yinlar o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi (2.3.1-rasm):



2.3.1-rasm. Pedagogik o'yinlarning asosiy belgilari

Har qanday o'yinlar kabi pedagogik jarayonlarda foydalaniladigan o'yinlar ham o'zining aniq maqsadi va natijasiga ega bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida ko'p holatlarda rolli va kasbiy xarakterga ega ishbiarmonlik o'yinlari foydalaniladi. Muhimi pedagogik maqsadlarda qo'llaniladigan o'yinli texnologiyalarining asosini talabalarning faollik va tezkorlikka asoslangan faoliyati tashkil etadi.

Pedagogik o'yinlar yangi o'quv materialini o'zlashtirish, mustahkamlash, talabning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiy kasbiy tayyorgarlik ko'nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni echishga qaratiladi. Ular yordamida talabalar turli holatlardan o'quv materialini tushunish, uning negizida ma'lum ko'nikma, malaka va sifatni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimida innovatsion xarakterga ega metodlar ham qo'llanilmoqda. Ular orasida eng keng ommalashgan metodlar yagona nom bilan nomlanuvchi interfaol metodlar sanaladi.

Bu turdagi metodlar interfaol ta'limning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Hozirgi kunda interfaol metodlarning 100 dan ortiq turi mavjud bo'lib, o'quv materialining xarakteri, talabalarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonida ularning har biridan samarali foydalanish mumkin. OTM pedagoglarining malakasini oshirish kursida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" moduli doirasida interfaol metodlardan o'rinli, samarali foydalanish imkoniyati mavjud.

So'nggi vaqtlarda "Keys-stadi" metodi xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda va bugungi kunda respublika ta'limida ham tobora ommalashib bormoqda. SHu sababli ayni o'rinda ushbu metod (texnologiya)⁹ mohiyati haqida so'z yuritiladi.

«Keys-stadi» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

⁹ Innovatsion ta'lim texnologiyalari/ Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., – T.: 2015. – 81-b.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari (2.3.2-jadval)

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o’quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o’quv topshirig‘ining echimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

Texnologiyaning asosiy vazifalari¹⁰ quyidagilardan iborat:

1. Tahlil ko‘nikmalari va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.
2. Nazariya va amaliyot birligini ta’minlash.
3. Muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyish qilish.
4. Qarorlar qabul qilish va uning oqibatlariga doir mulohazalarni taqdim etish.

¹⁰ Савельева М.Г. Педагогические кейсы: конструирование и использование в процессе обучения и оценки компетенций студентов / Учеб.-мет.пособие. – Ижевск: ФГБОУВПО “Удмуртский университет”, 2013. – С. 9.


5. Noaniqliklar mavjud bo'lgan sharoitda muqobil variantlarni baholash ko'nikmalarini shakllantirish.

Darhaqiqat, keys-stadi talabalarni har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi. Uning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va talaba (talaba) o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

“Keys-stadi” texnologiyasi dastlab 1870 yilda AQSHning Garvard universitetining huquq maktabida ta'lim jarayonida qo'llanilgan. Ushbu texnologiya Garvard universitetining biznes maktabida 1920 yilda qo'llanila boshlangan. Keyslarning ilk to'plami 1925 yilda biznes haqidagi Garvard universiteti hisobotlari asosida chop etilgan¹¹. Hozirda texnologiya xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot, biznes sohalarida ham keng qo'llanilmoqda. O'zbekistonda mazkur texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etish yo'lidagi harakatlar mustaqillik yillarida faollashdi.

Zamonaviy o'qitish amaliyotida o'quv keyslarining quyidagi turlari qo'llanilmoqda (2.3.3-rasm):

¹¹ Долгоруков А. Метод case-study как современная технология профессионально-ориентированного обучения: http://www.vshu.ru/lections.php?tab_id=3&a=info&id=2600.



Ta'limda qo'llaniladigan "Keys-stadi"ning tayyor variantlari ham mavjud bo'lib, ularni sotib olish mumkin. Biroq, eng samarali yo'l har bir fan bo'yicha keyslarning mustaqil yaratilishiga erishishdir. Birgina Garvard universitetida yiliga 700 ta keys ishlab chiqiladi. Ularning narxi 10 \$. Ammo ba'zi keyslarning narxi 500 ta 1000 \$ gacha. London biznes maktabi va boshqa biznes maktablar o'zlarida 340 nafarga yaqin ishtirokchilarni birlashtirgan holda keyslarni yaratish bilan shug'ullanadi.

Texnologiya talabalarda predmetni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni, amaliy ko'nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi, turli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish asosida ular tomonidan bilimlarning faol o'zlashtirilishi uchun imkoniyat yaratadi.

"Keys-stadi" yordamida talabalar quyidagi ko'nikma, malakalar¹²ga ega bo'ladi:

1. Tahliiy ko'nikmalar (ma'lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlashtirish, ma'lumotlarni zarur va nozarurga ajratish, tahlil qilish, taqdim etish; buning uchun shaxs aniq, mantiqiy fikrlay olishi kerak).

¹² Innovatsion ta'lim texnologiyalari/ Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., – T.: 2015. – 81-b.

2. **Amaliy ko‘nikmalar** (muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo‘llay bilish).

3. **Ijodiy ko‘nikmalar** (bunda mantiqiylik asosida vaziyat (muammo)ni echish muhim emas, balki ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha echimlarini topish va ularni tahlil qilish talab etiladi).

4. **Muloqot ko‘nikmalari** (unga ko‘ra talaba bahs-munozara olib borish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, qaroriga boshqalarni ishontirish, juda qisqa va ishonarli hisobotni tayyorlash ko‘nikmalarini o‘zlashtira bilishi zarur).

5. **Ijtimoiy ko‘nikmalar** (qarorni muhokama qilish jarayonida talabalar boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda o‘zgalarning fikrlarini qo‘llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikrni bildira olish va o‘zini boshqara olishi lozim).

Har o‘qituvchi keys-stadiga asoslangan o‘quv topshiriqlarining puxta asoslanishiga erisha olishi lozim. Keys topshiriqlarining amaliy-didaktik xarakterga ega bo‘lishi uchun ularni ishlab chiqishda quyidagilarga e‘tiborni qaratish talab etiladi:

- maqsad aniq ifoda etish (maqsad ikki xil yoki undan ortiq) tushunilmasligi;
- savol yoki topshiriqlar ma’lum darajada murakkab bo‘lishi;
- ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotning bir necha jihatini yoritish;
- tezda o‘zining amaliy ahamiyatini yo‘qotmasligi;
- milliy xususiyatlarni o‘zida namoyon eta olishi;
- ta’limning barcha yo‘nalish yoki sohalariga oid tipik vaziyatlarni ifodalashi;
- dolzarb ahamiyatga ega bo‘lishi;
- talabalarda tahliliy tafakkurni rivojlantirishi;
- bahs-munozarani tashkil etish imkoniyatini yaratishi;
- bir necha echim (qaror)ni ilgari surish imkoniyatini ta’minlay olishi

O‘quv keyslarining muhim xarakterli jihatlari talabalarga muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan talabalar e‘tiboriga adabiyotlar ro‘yxatining taqdim etilishi, ularga

metodik ko'rsatma, yo'riqnomalarning berilishi va albatta, o'qituvchi tomonidan muammoning echimi bo'yicha o'z variantining taqdim etilishi sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati o'rganilayotgan muammoga bevosita taalluqli bo'lishi zarur. Keyslarni echishga doir metodik ko'rsatma, yo'riqnomalar taxminan shunday bo'lishi mumkin:

1. Keys (muammo) bilan tanishing.
2. Muammoning dolzarbligini baholang.
3. Muammoning dolzarbligini dalillar yordamida izohlang.
4. Keys (muammo)ni samarali echish yo'llarini aniqlang.
5. Keys (muammo)ning samarali echimini belgilovchi metod va texnologiyalarni tanlang.
6. Keys (muammo)ning samarali echimini kafolatlovchi faraz (ilmiy faraz)larni shaklantiring.

Xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida keyslar amaliy va ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish maqsadida qo'llanilishi sababli ular odatda murakkab tarkibiy tuzilma hamda o'rtacha (Evropa), katta (AQSH) hajmga ega bo'ladi. Ko'p holatlarda keyslar birgina mashg'ulot jarayonida hal qilinmay, balki butun bir semestr, hatto o'quv yili davomida echiladi. Ularning bu boradagi tajribalaridan bitiruv malakaviy ishlari (bakalavriat), magistrlik dissertatsiyalari (magistratura), bitiruv loyiha ishlari (malaka oshirish kurslari)da foydalanish maqsadga muvofiqir. O'quv materialining xarakteridan kelib chiqqan holda oddiy, murakkab tarkibiy tuzilishga ega bo'lmagan, ya'ni mini testlardan ham foydalanish amaliy qiymatga egaligi ta'lim amaliyotida o'z tasdig'ini topgan.

Aytib o'tilganidek, xorijiy mamlakatlar katta hajmli, murakkab ilmiy-tadqiqot xarakteriga ega keyslar ko'p qo'llaniladi va ularni hal etish butun bir semestr, hatto o'quv yili davomida amalga oshiriladi. O'zbekiston sharoitida ham ushbu keyslaran samarali foyalanish mumkin. SHu bilan birga o'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida kichik hajmli, sodda – mini keyslardan ham foydalanish foydadan holi emas. Murakkab va oddiy mini keyslar o'rtasidagi eng muhim farqlar – ularning hajmi, murakkablik darajasi va tarkibiy tuzilmasida aks etadi.

Murakkab keys (muammoli vaziyat)lar quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo‘ladi:

1. Pedagogik annotatsiya.
2. Kirish.
3. Keys (muammo)ning bayoni.
4. Keys (muammo)ni echish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar.
5. Foydalanish uchun adabiyotlar ro‘yxati.
6. Metodik ko‘rsatmalar.
7. Keysni echish jarayoni (tahlil va echim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini tekshirish).
8. Keys echimi bo‘yicha taqdimotni tashkil etish.
9. Keys echimini tahlil qilish.
10. O‘qituvchi (keysolog)ning echimi.

Mini keyslar uchun quyidagi tarkibiy tuzilmaga egalik xarakterlidir:

1. Keys (muammo)ning bayoni.
2. Keys (muammo)ni echish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar.
3. Foydalanish uchun adabiyotlar ro‘yxati.
4. Metodik ko‘rsatmalar.
5. Keysni echish jarayoni (tahlil va echim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini tekshirish).
6. Keys echimi bo‘yicha taqdimotni tashkil etish.
7. Keys echimini tahlil qilish.
8. O‘qituvchi (keysolog)ning echimi

Anglanganidek, ta’lim jarayonida o‘quv keyslarini qo‘llashda jarayon (mashg‘ulot) yakunida albatta o‘qituvchi (keyolog)ning echimi taqdim etilishi zarur. Buning didaktik ahamiyati bu echim asosida talabalarining o‘z o‘quv-bilish harakatlarining qanchalik to‘g‘ri, samarali, maqsadga muvofiq amalga oshira olganliklarini tahlil qilish, solishtirish, yo‘l qo‘ygan xatolarini aniqlash imkoniyatini yaratishi bilan belgilanadi.

Keyslar tipologiyasida o'quv topshirig'ini taqdim etish usuli savolli hamda topshiriqli bo'lishi ko'rsatilgan. SHunga ko'ra talabalarning e'tiborlariga havola etiladigan keyslar yoki savolli, yoki topshiriqli bo'lishi mumkin.

Agar keys savolli-keys bo'lsa, u holda muammo yoki muammoli vaziyatni tahlil qilish va echishga oid bir necha savollar keltiriladi. Masalan:

1. Yoshlarning "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilishining asosiy omillari nimalardan iborat?

2. Yoshlarning "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilishlarida OAVning o'rni va rolini qanday aniq dalillar asosida baholay olasiz?

Agar keys topshiriqli-keys bo'lsa, u holda keysni echish jarayonida bajarilishi zarur bo'lgan topshiriqlar beriladi. Masalan:

1. Yoshlarni "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siridan himoyalash omillarini aniqlang.

2. Yoshlarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni samarali shakllantirish yo'llarini belgilang.

Odatda keyslarni tayyorlashda darslik va o'quv qo'llanmalardan, balki ommaviy axborot vositalari, jumladan, Internet materiallaridan ham maqsadli foydalanish mumkin.

Pedagogik turkum fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan keyslarni ularning xarakteriga ko'ra B.Blum taksonomiyasi (bilish-tushunish-anglash-tahlil-sintez-qo'llash tizimi)ga muvofiq bir necha guruhga ajratish mumkin .

Pedagogik turkum fanlarni o'qitishda ushbu keyslardan samarali, maqsadli va o'rinli foydalanish uchun zarur sharoitlar mavjudligi aniqlandi.

Pedagogik innovatsiyalarni qo'llash bilan uni to'plab, ommalashtirish, keng pedagogik jamoalar, ilmiy-pedagogik xodimlarga ularni etkazish, ularning taklif va mulohazalarini olish, tajriba-sinov xulosalari asosida innovatsiyalarni yanada takomillashtirish ishlari muntazam amalga oshirib borilsa, o'ylaymizki ta'lim samaradorligini oshirishga erishilardi.

Xulosa va takliflar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarorida “...o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, ...professor-o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish” – vazifalari belgilangan.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2017 yil 29 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida” Farmon qabul qilinib, unda “ta’lim tizimida innovatsiyalarni, shu jumladan o‘qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini joriy etish orqali targ‘ib qilishga ko‘maklashish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni nazarda tutuvchi innovatsion o‘quv dasturlarini ishlab chiqishni ta’minlash” vazirlikning asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Mazkur qaror va farmonlar asosida bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda ta’lim tizimida bilimlarni egallashning yangi konsepsiyasi - zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalarning turli xil ko‘rinishlarini qo‘llash juda yaxshi samara bermoqda. Bunda ta’limning yangi metodlardan foydalanishda tahsil oluvchilarning intellektual, erkin fikrlashni rivojlantirish, o‘z fikrini asoslab berishga intilishi, o‘zgalar fikrini tinglay olishi, muammolar echimini topishga harakat qilishi, ijodiy va axloqiy taraqqiyoti jarayonlariga samarali ta’sir etadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra ta’lim samaradorlini oshirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

- barcha ta’lim muassasalari dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchi-talabalarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg‘otish, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yuqori darajada erishish;
- o‘quvchi talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ta’limning innovatsion

va interaktiv usullaridan samarali foydalanish;

- o'qituvchilarni malaka kvalifikatsiyasiga va ta'lim texnologiyalariga nisbatan munosabatini o'zgartirish hisobiga ta'lim ishtirokchilarining madaniyati va bilim darajasini oshirish;

- ta'lim sohasida, ayniqsa innovatsiyani joriy qilish borasida xalqaro miqyosda hamkorlikni yanada rivojlantirish va tajriba almashishni amalga oshirish;

- innovatsion metodlar ixtirochisi va amaliyotchisi bo'lgan pedagoglarning ish tajribalarini ommalashtirish, rag'batlantirish va ayniqsa, Davlat mukofotlariga tavsiya etish orqali yangilik va g'oyalar yaratish, amaliyotga tadbiq etish, o'z kasbiga professional yondashuv darajasini hamda mamlakatimiz ta'lim tizimi samaradorligini oshirib borish.

Innovatsion texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirishga va o'zlashtirilgan bilimlarni mustaqil baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qila oluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. SHuning uchun ham ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: “O'zbekiston” NMIU, 2016 y.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” Qonuni.–T.:“O'zbekiston”, 2010y.
3. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”–T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997 y., 9-son.
4. O'zbekiston Respublikasining “Davlat statistikasi to'g'risida”gi qonuni. 2002 yil 12 dekabr, №441-P. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2002, №24, 26-31 b.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi” to'g'risidagi PF 4947-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta'lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-4732-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 4 martdagi “2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va tarkibiy o'zgartirishni ta'minlashning dasturiy chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4707-sonli Farmoni. www.lex.uz 403.2015
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ 2909-sonli “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy-me'yoriy hujjatlari.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 avgustdagi “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 242-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to'g'risida”gi Nizom.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentyabrdagi “Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 278-sonli qarori.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi.

14. SH.Mirziyoev. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak”.- T.: “O'zbekiston” nashriyot. 2017 y.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 22.12.2017.

16. Karimov I.A. Bizning maqsadimiz – erkin va farovon, demokratik xayot qurish.- T.: “O'zbekiston”, 2015. 64 b.

17. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. –T.: O'zbekiston, 2013. – 64 b.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Albert R.S., Runco M.A. Theories of creativity. – London: Newbury Park, 1990.
2. Albert R. S., Runco M.A. A History of Research on Creativity. – Cambridge: Cambridge University press, 1999. Pp. 16-31.
3. Amabile, T. M. Within you, without you: The social psychology of creativity, andbeyond. – London: NY, 1990. Pp. 61-91.
4. Bishop J. Psychological sense of community: research, applications, and implications. – London: Kluwer Academic/Plenum. 1990. – 339 p.
5. Bottino R.M., Forcheri P., Molfino M.T. Technology Transfer in School: from Research to Innovation // British Journal of Educational Technology. 1998. № 29 (2). Rr. 163-172.
6. Cropley A., Cropley, D. Using Assessment to Foster Creativity. – Singapore: World Scientific. 2007. Pp. 209-230.
7. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
8. 8. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. – СПб.: СПГУТД, 2006.
9. 9. Башина Т.Ф., Илин Э.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – КПб.: Питер, 2009.
10. 10. Воинова М.Г. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Т.: “Иқтисод-молия”, 2006.
11. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – Т.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b.
12. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari,

akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.

13. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.

14. Монахов, В.М., Бахусова, Э.В., Олейникова, И.А. Педагогическая технология В.М.Монахова от А доЯ: самоучител проектирования учебного протсесса: Липетск: ИРО, 2007.

15. Odaryonnye deti (Per. s angl.). – M.: Progress, 1991. – S. 177-178.

16. Pedagogika nazariyasi / Darslik. Muall.: M.X.Toxtaxodjaeva va b. Prof. M.X.Toxtaxodjaeva tahriri ostida. – T.: "Iqtisod-moiya", 2010. – 136-140-b.

17. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo'll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog'omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.

18. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.

19. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

20. Saveleva M.G. Pedagogicheskie keysy: konstruirovaniye i ispolzovanie v protsesse obucheniya i otsenki kompetensiy studentov / Ucheb.-met.posobie. – Ijevsk: FGBOUVPO "Udmurtskiy universitet", 2013. – S. 9.

21. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.

22. Сборник кейсов для вузов по дисциплинам гуманитарного и социально-экономического цикла / Учеб. мет. пособие. – СПб.: Изд-о Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2015. – С. 3

23. Сиротюк Ф.С. Диагностика одарённости / Учеб. пособие. – М.: Директ-Медиа, 2014. – 1229 с.

24. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiiqiy asoslari – T.: 2006.

25. Turdieva M. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. – 38-42-b.

26. Утёмов В.В., Зинковкина М.М., Горев П.М. 3. Педагогика

креативности: прикладной курс научного творчества / Учеб.пособие. – Киров: АНОО “Межрегиональный СИТО”, 2013. – 212 с.

27. Fayzullaeva N. Pedagogik bilimlar – o‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi // Uzluksiz ta’lim j. – T.: 2006. 6-son. – 102-b.

Internet resurslari

1. www.lek.uz
2. Aho E. Creating an Innovative Europe: http://ec.europa.eu/invest-in-research/pdf/download_en/aho_report.pdf.
3. Ala-Mutka K. Social Computing: Study on the Use and Impacts of Collaborative Content, <http://ftp.jrc.es/EURdoc/JRC47511.pdf>.
4. Ala-Mutka K., Punie Y., Redecker C. (2008a). Digital Competence for Lifelong Learning: <http://ftp.jrc.es/EURdoc/JRC48708.TN.pdf>.

“B /B /B”**1-ilova**

Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim

“Tushunchalar”- tahlili**2-ilova**

Tushunchalar	Sizning fikringizcha ushbu tushuncha nimani anglatadi?	Qo‘shimcha ma‘lumot
Texnologiya		
Innovatsiya		
Innovatsion jarayon		
Innovatika		

“SWOT - tahlil” jadvali**3-ilova**

S (kuchli tomoni)	W (kuchsiz tomoni)
O (imkoniyatlar)	T (tahdidlar)

Konseptual jadval**4-ilova**

<i>Aspekt tahlili</i>	An'anaviy ta'lim	Hamkorlikdagi ta'lim
Mashg'ulot maqsadi		
Mashg'ulot mazmuni		
O'qishning harakatlanuvchi kuchlari		
Mashg'ulotda ishlash metodlari		
O'qituvchi vazifasi		